

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

*Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti
«Iqtisodiyot» kafedrası*

5140900 – Kasb ta'limi (5340100-Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)
yonalishi uchun) ta'lim yo'nalishi
4 kurs 405 guruh talabasi

Zokirova Marg`uba

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



*Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisi turmush sharoitlarini
yaxshilanishi.*

Namangan - 2011 yil

MUNDARIJA

Kirish	3-6
I bob. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uni iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari	
1.1. Qishloq ho'jaligi tarmoqlari samaradorligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	7-12
1.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning samaradorligi ko'rsatkichlari va uni aniqlash usullari	13-19
1.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirish masalalari	19-25
II bob. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati va uning iqtisodiy tahlili	
2.1. Namangan viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari	26-33
2.2. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	33-39
2.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda infratuzilmalar tizimi	39-43
III bob. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq ho'jalik mahsulotlari yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	
3.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarini daromadini oshirishning asosiy muammolari	44-52
3.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi	52-63
3.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari	63-72
Xulosa va takliflar	73-76
Foydalanilgan adabiyotlar	77-82

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 18,0 foizni (2010 y.) tashkil qiladi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasida agrar sektorni tubdan isloh qilish ustivor vazifa sifatida qaraladi.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini tartiblash va qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq g'alla mustaqilligiga erishish, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, soliqlar tizimini ishlab chiqishni bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

SHuningdek davlat qishloq xo'jaligiga fan va texnikaning samarali tizimini, ilg'or yuqori texnologiyalarni keng joriy qilish hamda qishloq aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini ishlab chiqdi va uni amalga oshirishga rahbarlik qilmoqda. Bevosita davlat rahbarligida qishloq xo'jaligi muhim institutsional o'zgarishlar, yer va mulk islohotlari izchil amalga oshirildi.

“Mamlakatimizda 2009 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini yanada oshirish printsiplial muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib fermer xo'jaliklari ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan rentabelligi past va istiqbolsiz zarar ko'rib ishlaydigan shirkat xo'jaliklarini negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda xaqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi”¹.

“SHuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yili yuzaga kelgan murakkab iqlim sharoitiga qaramay, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xomashyosi tayyorlandi”².

Yuqorilardan kelib chiqqan qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartiblash va qo'llab-quvvatlash negizida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanuvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini o'rganish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar – V.Oyken, K.Preykop, K.Fraberg, K.Xartman, L.Kristofer, M.Parter, P.Bukaly, hamda MDH olimlari A. Yu.Yudanov, R.A.Fayxuddinov, S.P.Auksioven, Ye.N.Palkarina, V.I.Timofeev, N.Ya.Kapunova, O.G.Stronova, E.N.Krilovъx va boshqalarni ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda ushbu masalalar yuzasidan S.S.G'ulomov, M.SHarifxo'jaev, R.Xusanov, A.Qodirov, I.Muradov, F.Nazarov, Q.A.CHoriev, V.S.Xushmatov, A.Qodirov, Q.Xalimjanov va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Tadqiqotning maqsadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- o'tish davri iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi davlat tomonidan tartiblash mohiyatini ochib berish;
- mamlakatimizda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlar natijalarini tahlil qilish;

¹ Karimov I.A. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari T; “O'zbekiston” 2009. 21-bet.

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – -bet.

- Namangan viloyatida paxta yetishtirishning iqtisodiy tahlili va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Namangan viloyati qishloq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;
- qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligi va yo'nalishlarini o'rganish;

Tadqiqot ob'ekti sifatida Namangan viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy – metodologik asoslari. Tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning mavzuga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining asarlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan Namangan viloyati qishloq xo'jaligini tartiblash va qo'llab-quvvatlashning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

Ilmiy ishning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, BMIning ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy-amaliy ahamiyati va boshqalar bayon qilingan.

BMIning **birinchi bobi** «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uni iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari» deb nomlanib, unda qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning samaradorligi ko'rsatkichlari va uni aniqlash usullari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Tadqiqotning **ikkinchi bobi** «Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati va uning iqtisodiy tahlili» da – Namangan viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari, Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda infratuzilmalar tizimi va iqtisodiy tahlillar olib borilgan

BMI uchinchi bobi «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari» deb nomlanib, unda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarini daromadini oshirishning asosiy muammolari, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari asoslab berilgan

Ilmiy ishning **xulosa** qismida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari umumlashtirilgan, taklif va ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

I bob. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uni iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari

1.1. Qishloq ho'jaligi tarmoqlari samaradorligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, eng muhimi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yuksaltirish, yurtimizni obod etish yo'lida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakatining samarasini yanada oshirish maqsadida yirik ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» dasturi doirasida erning unumdorligini oshirish, uning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishildi.

Jumladan, dastur doirasida 10 ming kilometrdan ortiq zovurlar, salkam 1000 kilometrlik drenaj tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash ishlari bajarildi, 250 ta drenaj quduqlar, 15 ta melioratsiya nasos stantsiyalari va inshootlari qurildi hamda ko'plab suv inshootlari rekonstruktsiya qilindi, 50 kilometr uzunlikdagi yangi kanallar va boshqa ob'ektlar qurilishi yakuniga etkazildi. 2009 yilda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 130 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

Natijada 240 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini, fermer xo'jaliklarining daromadini oshirish imkonini beradi.

SHuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ulkan loyihalarni amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya va bir qator arab mamlakatlarining moliya institutlari tomonidan ajratilgan sarmoyalar katta hissa bo'lib qo'shildi.

Xususan, 2009 yil yakuniga ko'ra O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yili yuzaga kelgan murakkab iqlim sharoitiga qaramay, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat qishloq xo'jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Respublika xukumati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalarni hal etishga e'tibor bermoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlarni qabul qildi.

Jumladan "Er to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida", "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida", "Ijara to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida", "Er solig'i to'g'risida", "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida", 1998 yil aprel oyida Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida" qonunlari hamda xukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. Birinchi navbatda paxta yakka xokimligini bartaraf etish va ekin maydonlari tarkibini ilmiy asosda tuzish tadbirlari ko'rildi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda O'zbekistonning eng muhim oziq-ovqat resurslari bilan o'zini-o'zi ta'minlashga erishish vazifasi qo'yildi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi murakkab tizim bo'lib, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy quyi tizimlardan tashkil topadi. SHu sababli ishlab chiqarish samaradorligi ushbu quyi

tizimlar natijalarini o'zida aks ettirishi zarur. SHunday qilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga ishlab chiqarish-texnologik, iqtisodiy-ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorliklar yig'indisi sifatida qarash lozim.

Ishlab chiqarish samaradorligi ham miqdor, ham sifat ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtiradi. Alohida xo'jalik erishgan samaradorlik darajasi bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligiga baho berish mumkin. Ammo, buning uchun erishilgan qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish-texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi darajasini yetarli darajada to'liq aks ettiruvchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga ega bo'lish zarur.

Bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida samaradorlik moddiy ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishdagi eng barqaror va o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlar va xodisalarni to'laroq aks ettiruvchi ob'ektiv iqtisodiy qonunlar harakati bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi va shu asosda aholi turmush darajasini oshirish pirovard natijada bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bozor muhitining shakllanishi bozorning asosiy tamoyillariga, ya'ni iqtisodiyotning erkinligi, bahoning talab va taklif asosida tashkil topishi, tadbirkorlar va iste'molchilar erkinligi, raqobat va boshqalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligining tarmoqlari samaradorligi o'zaro murakkab bog'likda bo'lgan ko'plab omillar ta'sirida tashkil topadi.


Qishloq xo'jaligining tarmoqlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ishlab chiqarish sharoitlari, tuproqning tabiiy unumdorligi va boshqalarni ifodalovchi tabiiy omillar;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy-ishlab chiqarish jihatlaridan kelib chiquvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha tasniflash mumkin (1-chizma).

1-chizma

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligi darajasini belgilab beruvchi omillar



Tashkiliy-iqtisodiy omillar boshqa barcha omillar bilan chambarchas o'zaro bog'liqlikda amal qilib, qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xarajatlarning bir-birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmining sezilarli o'sishiga erishishdan iborat. SHundan kelib chiqqan holda, tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi va uning sifatini yaxshilanishi eng avvalo ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish evaziga oshirilishi lozim.

Tashkiliy-iqtisodiy omillar qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa resurslar (asosiy va aylanma fondlar, yer, suv, mehnat, moliya resurslari va boshqalar) bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanish darajasi ishlab chiqarishning pirovard natijalarida o'z aksini topadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish uchun o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarining kompleks rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Uni amalga oshirish alohida o'simliklar, chorva mollari turlari, ishlab chiqarish salohiyati tarkibi, tuzilishi va undan foydalanishni takomillashtirish tizimini o'z ichiga oluvchi texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal etish bilan bog'liq.

SHunday qilib, samaradorlikga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tadqiq qilish, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha amaldagi tarmoq hajmining imkoniyatlarga nisbatan farqini aniqlash va shu asosida ularning har birini ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini baholash orqali ishlab chiqarishning rivojlanish istiqbollari va samaradorligini imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligini oshirishda quyidagilarga amal qilish zarur:

-ijtimoiy, jamoa va shaxsiy manfaatlarning maqsadga muvofiq uyg'unlashuvini hisobga olgan holda iqtisodiy sharoitlar tizimini takomillashtirish;

-fan-texnika taraqqiyoti natijalarini joriy etgan holda qishloq xo'jaligini intensivlashtirishni izchil amalga oshirish; moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- asosiy va aylanma fondlardan, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini yaxshilash;

- tejab-tergash rejimi va moddiy manfaatdorlik tamoyilini amalga oshirish;

- bozor iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni boshqarish shakllarini takomillashtirish;

- dehqon va fermerlarda o'z mehnati natijalariga egalik qilishga ishonch tug'dirish va boshqalar.

Respublika qishloq xo'jaligi tarkibida quyidagi yirik tarmoqlar mavjud: dehqonchilik; chorvachilik. Dehqonchilik mamlakat qishloq xo'jaligining eng asosiy tarmog'i hisoblanadi. Uning qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan jami yalpi mahsulotdagi salmog'i 80-90 foizni, tovar mahsuloti tarkibidagi salmog'i esa 80-82 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmog'i: don-g'allachilik; texnik ekinlari - paxtachilik, kanopchilik, tamakichilik, lavlagichilik; kartoshkachilik; sabzavot va polizchilik; bog'dorchilik va boshqa tarmoqlardan iboratdir.

Bu tarmoqlarda bug'doy, arpa, sholi, makka doni, mosh, paxta xomashyosi, tamaki bargi, kanop, qand lavlagi, yer yong'oq, kartoshka, pamidor, bodring, karom, sabzi, qovun, tarvuz, uzim, olma, o'rik, yong'oq, anor va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Ular qayta ishlash sanoati tarmoqlari uchun xomashyo, aholi uchun esa oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

Dehqonchilik tarmoqlari orasida ichida paxtachilik bilan g'allachilik davlat miqyosida strategik ahamiyatga egadir. Bu tarmoqlar respublikadagi yirik va muhim hisoblangan «O'zdonmahsulot», paxta tozalash sanoati, to'qimachilik va yengil hamda non mahsulotlari korxonalarini xomashyo bilan ta'minlaydi. Natijada millionlab ishchi-xizmatchilar ish hamda daromad bilan ta'minlanadi.

Paxta tolasini sotish natijasida mamlakat valyuta tushumining 55 foizga yaqini oinmoqda.

G'allachilik bilan paxtachilik tarmoqlarining umumiy maydoni respublika jami ekin maydonining 80 foizga yaqinini tashkil etmoqda. Ayrim qishloq xo'jalik korxonalarida esa jami ekin maydoninig 90 foizga yaqini paxta hamda g'alla bilan band bo'lmoqda. SHuning uchun ham ularning yalpi mahsulotdagi salmog'i yuqori. Ularning ko'proq yetishtirilishini doimiy

yo'lga qo'yish mamlakat axolisining bu boradagi talabini qondirish bilan birga tashqi bozorda ko'proq sotilishini ham ta'minlaydi. Bu esa valyuta tushumining oshishiga olib keladi.

Paxta yetishtirish ichki va tashqi bozor talabini qondira oladigan turli xildagi mahsulotlar davlat siyosatini e'tiborga olgan holda yetishtirilmoqda.

1.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning samaradorligi ko'rsatkichlari va uni aniqlash usullari

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida mamlakatning iqlim, yer-suv va mehnat resurslaridan hamda halqning asrlar davomida to'plangan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik yetakchi tarmoq hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi ishlab chiqarish harajatlari bilan olingan natijaning nisbatidir. Qancha resurs sarflab, qancha va qanday sifatli mahsulot va xizmatlar yaratilganini samaradorlik ifodalaydi. Uning bosh mezon-pirovard natija hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarishning pirovard natijasi bu-yalpi milliy mahsulot va uning tarkibiy qismi bo'lgan milliy daromaddir. Milliy daromad talab-ehtiyojini qondirish va kelajakda iqtisodni o'stirishga xizmat qiluvchi sof investitsiya manbaidir. SHu boisdan samaradorlik yaratilgan milliy daromadning ishlatilgan resurslariga nisbati bilan aniqlanadi. Samaradorlik sintetik va umumlashgan ko'rsatkich bo'lib, integral harakteriga ega, ya'ni o'zida bir necha ko'rsatkichlar natijasini jamlaydi. U mahsulot sig'imi, material sig'imi va investitsiya sig'imidan kelib chiqadigan xosiladir. Mahsulotni yaratishga ketgan mehnat sarfi uning mehnat sig'imi, material sarfi xom-ashyo yoki material sig'imi, ishlatilgan fondlar sig'imi bo'ladi. Ularni aniqlash uchun mehnat massasi, ya'ni ish haqida ifoda etiladi, materillar sarfi, fondlar summasi va nihoyat investitsiya summasi yaratilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi uni har tomonlama intensivlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni samaradorligi-bu paxta yetishtirishda daromadlarni harajatlar bilan taqqoslash orqali aniqlangan ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijasidir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish-bu har bir mehnat, moddiy, moliyaviy harajatlar birligiga mahsulot ishlab chiqarish va milliy daromad salmog'ini oshirish demakdir. Samaradorlikni oshirish qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, mehnatkashlar moddiy farovonligini oshirishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari - fan va texnika taraqqiyoti erishgan barcha yutuqlardan foydalanish; yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish; qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini sanoatlashtirish; mehnat unumdorligini o'stirish sur'atlarini tezlashtirish; mahsulot sifatini yaxshilash; yer va uning xosildorligidan yaxshi foydalanish, qishloq xo'jalik korxonasida ishlab chiqarish fondlari va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish manbaidir. Ishlab chiqarish samaradorligining taxlili uning ko'rsatkichlarini tanlashning hamda ularni hisoblash tartibining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmokda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi bir qancha ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Ular miqdor va qiymat shaklida namoyon bo'ladi. Jumladan, ekin turlari bo'yicha 1 gektar maydondan olingan hosil, ya'ni ekinlarning hosildorligi, oziqa ekinlari bo'yicha qo'shimcha har gektardan olingan oziqa birligi miqdori aniqlanadi. Uni aniqlash uchun jami yetishtirilgan hosilni shu hosil olingan ekin maydoniga taqsimlash lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\mathcal{E}x = \frac{Yx}{Xm}; \quad O\delta = \frac{\sum O\delta}{O\delta_m}$$

Bunda: E_x – ekin turlarining hosildorligi, ts/ga;

O_b – bir gektardan olingan oziqa birligi, ts/ga;

Y_{ax} – yalpi olingan hosil, tonna yoki tsen;

$\sum O_b$ – jami olingan oziqa birligi, tonna yoki tsen;

X_m, O_{b_m} – hosil, oziqa birligi olingan maydon, ga.

Bir gektar ekin maydoniga, olingan bir tsentner hosil uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari (mehnat, mablag'), ularning jami sarflangan mehnat va mablag' xarajatlarini hosil olingan maydon yoki jami hosil miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin. Buning uchun ushbu formuladan foydalanish lozim:

$$X_{\text{za}} = \frac{\sum ИЧ_x}{X_m}; \text{ ёки } = \frac{\sum M_x}{X_m}$$

Bunda: X_{ga} – 1 gektarga sarflangan ishlab chiqarish, mehnat xarajatlari, so'm/ga, k/ga;

$\sum Ich_x$ – ekin turlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari, mln. so'm;

$\sum M_x$ – ekin turlari bo'yicha sarflangan mehnat sarfi, ming kishi-kuni.

Ekinlarning turlari bo'yicha ishlab chiqarish tannarxi jami ishlab chiqarish xarajatlar summasining olingan mahsulot miqdoriga nisbati bilan, ya'ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$M_{\text{tn}} = \frac{\sum ИЧ_x}{Я_x}$$

Bunda: M_{tn} – mahsulot turini yetishtirish tannarxi, so'm/tsen. Bu ko'rsatkich yetishtirilgan har bir mahsulotning bir tsentneri necha so'mga tushganligini ko'rsatadi. Ular mahsulotlarni sotish baholari bilan taqqoslanishi natijasida har bir tsentner mahsulotni yetishtirish evaziga erishilgan natijalarni hisoblash, ya'ni shu mahsulotni yetishtirishdan xo'jalik foyda oldimi yoki zarar qilganligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Natijada har bir mahsulot turining rentabellik darajasi aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$P = \frac{C\Phi}{ИЧ_x} \times 100$$

Bunda: R – har bir mahsulot turining, dehqonchilikning rentabellik darajasi, foizda;

S_f – olingan foyda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi nafaqat yuqori unumli mashina va uskunalar miqdori, ilg'or texnologiya, ishlab chiqarishning kompleks mexanizatsiyalashganligi va ilmiy-texnika taraqqiyotining boshqa omillari bilan, balki ko'p jihatdan ishlab chiqarishning ijtimoiy iqtisodiy sharoitlari bilan ham belgilanadi. Kadrlarning sifati ularning malakasini oshirish, moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, mehnatni me'yorlash, ilg'or texnikadan foydalanishni yo'lga quyish va boshqa omillar inson omilini faollashtirish, ishlab chiqarish jarayonining ijtimoiy yo'naltirilgan darajasini oshirish orqali qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligini yuksaltirish imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan iqtisodiy-ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ushbu salohiyatlar natural-buyum va qiymat ko'rinishdagi tarkibiga ega.

Ishlab chiqarish salohiyatining natural-buyum tarkibi uning alohida unsurlari o'rtasidagi nisbati sifatida tavsiflanadi va nisbiy, natural va shartli-natural ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Natural-buyum tarkibidan farqli o'laroq, ishlab chiqarish salohiyatining qiymat tarkibi birmuncha yuqori murakkablik darajasi bilan tavsiflanadi va ishlab chiqarish resurslarining natural-qiymat tarkibini aks ettiradi.

Korxonalar ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy unsurlari majmuini o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari misolida ko'rib chiqish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, korxonalar ishlab chiqarish salohiyati unsurlari majmuini ishlab chiqarishning tabiiy-iqlim va xo'jalik omillariga ko'ra tasniflash mumkin. Boshqarilish darajasiga ko'ra salohiyatlar unsurlari majmui boshqarilmaydigan (tabiiy iqlim sharoitlari), qisman boshqariladigan (tuproq, o'simlik va hayvon organizmlari) va boshqariladigan omillarga bo'linishi mumkin.

Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi alohida faoliyat turlari bo'yicha va nisbiy ko'rsatkichlarda, tarmoq bo'yicha natural va shartli-natural ifodada (jismoniy massada, ozuqa birligi va boshqalar) va umuman qishloq xo'jaligi bo'yicha qiymat ko'rinishida va natural birliklarda xarakterlanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarda mahsulot ishlab chiqarish salohiyati va haqiqiy hajmi o'rtasidagi tafovut sifatida, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishda mumkin bo'lgan mehnat va moddiy resurslarni iqtisod qilish miqdorlari orqali ifodalanadi.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda tabiiy-iqtisodiy sharoit, davlat siyosati hamda bozor talabi e'tiborga olinmoqda. Agrar-iqtisodiy islohotlar amalga oshirila borishi natijasida paxta yetishtirishda nodavlat sektorining ulushi ortmoqda.

Aksariyat paxta ekinlari hosildorligining pasayishiga ekin maydonlari unumdorligi pasayganligi sabab bo'lmoqda. Hozirgi davrda respublika miqyosida jami sug'oriladigan yerlarning 50 foiziga yaqini u yoki bu darajada sho'rlangan. Bunday holat shu yerlarning meliorativ holati yomonlashishi oqibatida yuz bermoqda.

So'nggi yillarda kimyoviy vositalar baholarining keskin oshganligi sababli ularni talab etilgan miqdorda sotib olish va ekin maydonlariga zarur darajada solish imkoni bo'lmayapti. Bu ekinlarning hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Respublika viloyatlarida ekinlarning serhosil, samarali navlarini to'g'ri joylashtirishga erishilmaganligi ham hosildorlik oshishi yo'lidagi to'siqlardan biridir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy usullariga tannarx, narx, foyda, rentabellik, xo'jalik hisobi, moddiy rag'batlantirish fondi kiradi. Iqtisodiy usullarining asosiy vazifasi ishlab chiqarishda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar miqdorini kamaytirishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmlarining yangi usullarini vujudga keltirish va undan samarali foydalanishdir. Xo'jalik faoliyati negizini uchta asosiy masala: ishlab chiqarishni boshqarish, rejalashtirish va rag'batlantirish tashkil etadi. Ular xo'jalik mexanizmida umumiy qilib birlashtirilganda, davlat iqtisodini tutib turadi. Xo'jalik mexanizmi o'z ichiga boshqaruvning asosi bo'lgan rejalashtirishni, xo'jalikni boshqarishda amaliyotda qo'llaniladigan iqtisodiy tizimlarni, xo'jalik tashkilotlarining tashkiliy tizimini, ularning ish usullarini, mehnat jamoalarining ishlab chiqarishni boshqarishda qatnashishini o'z ichiga oladi.

Masalan, ish haqi fondlarini oldindan rejalashtirish o'rniga ish haqi normalarini qo'llash jamoaning mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishidan manfaatdor qiladi, imtiyozli shartlar asosida qarz berish bilan xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishning yangi quvvatlarini yaratishga qiziqtiradi.

Mazkur usullardan ishlab chiqarishda foydalanish har bir xodim va jamoaning moddiy manfaatlarini qondirish darajasi ularning umumiy pirovard natijalarga erishishga qo'shgan hissasi bilan belgilanishini ta'minlaydi.

Korxonalar ishchi-xodimlarining yuksak pirovard natijalarga erishganligi uchun moddiy rag'batlantirish mehnat jamoasining xo'jalik hisobi daromadidan hosil qilingan iqtisodiy rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy rag'batlantirish jamg'armasiga moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish jamg'armalari kiradi.

Xodimlar, mehnat jamoalari qanchalik unumli mehnat qilsalar, ularning xo'jalik hisobi daromadi shunchalik ko'p bo'ladi. Bu xodimlarning ijtimoiy va moddiy talablarini qondirishga keng yo'l ochib beradi. Iqtisodiy qonunlarni chuqur bilish va ulardan samarali foydalanish bozor munosabatlarining afzalliklarini ro'yobga chiqarish, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini jadallashtirishning zarur shartidir.

Ishlab chiqarishda yangi xo'jalik mexanizmidan samarali foydalanish mehnat jamoalari va xar bir xodimdan fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xo'jalik mexanizmini takomillashtirish usullarini qidirib topishni talab etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari - fan va texnika taraqqiyoti erishgan barcha yutuqlardan foydalanish; yangi texnika

va texnologiyalarni joriy etish; mehnat unumdorligini o'zgarirish sur'atlarini tezlashtirish; mahsulot sifatini yaxshilash; yer va uning xosildorligidan yaxshi foydalanish, qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish fondlari va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish manbaidir. Ishlab chiqarish samaradorligining taxlili uning ko'rsatkichlarini tanlashning hamda ularni hisoblash tartibining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

“Ishlab chiqarish samaradorligi”ni ishlab chiqarishning u yoki bu usuli amal qilayotgan ijtimoiy munosabatlar tizimini hamda tarmoq ishlab chiqarishini butunligicha asoslash uchun keng va tor ma'noda qarab chiqish mumkin. Bunday holatda u nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasi natijalarini, ya'ni, ijtimoiy mehnat hamda ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning moddiy va ma'naviy turmush darajasi oshirish va shunga o'xshash boshqa sohalarni ham qamrab oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligining asosiy yo'nalishi uni har tomonlama intensivlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iboratdir.

1.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirish masalalari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish respublika hamda qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotidagi o'rnini, ahamiyatini e'tiborga olgan holda kelajakda ularni rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish eng asosiy vazifalardan biridir. Bu muammoni ijobiy hal etish uchun, avvalo, erkin bozor talablarini e'tiborga olgan holda qancha miqdorda yetishtirish zarurligini aniqlab olish lozim. Bunda davlatning qancha miqdorda ehtiyojmand ekanligini aniqlashga alohida e'tibor berish lozim. CHunki davlat o'z ehtiyojini qondiradigan tovar ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozlar yaratmoqda.

Xo'jaliklar boshqa iste'molchilarning qisqa va uzoq muddatli talablarini ham chuqur o'rganishlari, o'z ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari hamda boshqa talablarini aniqlab olishlari lozim. Qancha miqdorda yetishtirish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda ularning samaradorligini, albatta, e'tiborga olish zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik o'z talabini qondiradigan miqdorda foyda keltiradigan mahsulotlarni yetishtirish bilan shug'ullanishi lozim. Yuqorida ta'kidlangan masalalarni hal etishda ekinlarni almashlab ekishning nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan tizimi joriy etilishiga ham alohida e'tibor berish kerak. CHunki bu tuproqning unumdorligi oshirishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini: ularning turlarini, miqdorini hamda holatini aniqlab olish alohida ahamiyatga egaligini unutmaslik zarur. CHunki shular yordamida paxta yetishtirish jarayonlari belgilangan muddatlarda, sifatli bajarilishi ta'minlanadi. Natijada ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlari ma'lum miqdorda tejalishi mumkin.

Barcha vositalardan yil davomida to'g'ri, to'liq hamda samarali foydalanish orqali talabni qondiradigan miqdorda sifatli paxta yetishtirish, ularning samaradorligini yuksaltirish uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ekstensiv yo'lda mahsulot miqdori asosan ekinlar maydonini ko'paytirish hisobiga, *intensiv* yo'lda esa ekinlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlanadi. Mahsulot miqdorini intensiv yo'l orqali ko'paytirish uchun tuproq unumdorligi oshirishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, masalan, irrigatsiya-melioratsiya tizimini qurish, ta'mirlash, yerlarni tekislash, sho'rini yuvish, o'g'itlardan samarali foydalanish, almashlab ekishni joriy etish kerak.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish uchun esa ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlari tejalishini ta'minlaydigan ishlarni, tadbirlarni oqilona amalga oshirish zarur. Buning uchun ishlab chiqarish, hosilni yig'ishtirib olish, saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish vositalaridan to'liq va samarali foydalanish, yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishchi-xizmatchilar moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishini izchillik bilan amalga oshirish kerak.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida boshqaruv uslublari qishloq xo'jalik korxonalarini oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, yuqori sifatli qilib bajarilishini ta'minlash uchun ularga nisbatan ko'riladigan chora-tadbirlarni va ta'sirchan usullarning qo'llanilishini bildiradi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari boshqaruvida qo'llaniladigan barcha usullar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Boshqaruv uslublari o'zining tavsifiga ko'ra iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy va ijtimoiy-ruhiy usullardan iborat bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida boshqarishning iqtisodiy usuli xodimlar va mehnat jamoalarining moddiy manfaatlariga asoslangan bo'lib, davlat, jamoa va har bir xodimning manfaatlarining bir-biri bilan uzviy bog'lanishiga imkon yaratadi.

Qishloq xo'jaligida boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usuli yakkaboshchilik munosabatlari, intizom va mas'uliyatga asoslanadi.

Tashkiliy-ma'muriy ta'sir ko'rsatish boshqaruvning aniq boshqarilayotgan ob'ektga yoki shaxslarga qaratilgan majburiy tarzda to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy ko'rsatmalaridir. Bunday ko'rsatmalar jumlasiga mahsulot turlarining rejaga asosan bir maromda ishlab chiqarishni yuqori darajada tashkil qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat meyorlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, mehnat intizomini mustahkamlash va boshqa tez hal qilinadigan masalalar to'g'risidagi ko'rsatmalar kiradi.

Quyidagi pog'ona rahbarlari bajarishi shart bo'lgan farmoyish va ko'rsatmalarni berish, ularni bajarilishini nazorat qilish, meyorlarni ishlab chiqish, xodimlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, ishchilarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish, taqdirlash yoki jazolash yuqori pog'onp rahbarining vazifasiga kiradi.

Qishloq xo'jaligida boshqarishning ijtimoiy-ruhiy usuli mehnatkashlarning ishlab chiqarishni boshqarishda keng miqyosda ishtirok etishiga asoslangan bo'lib, uni qo'llashdan asosiy maqsad jamoalarda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit yaratishdir. Mehnat jamoalarida ijtimoiy-ruhiy muhitning holati chiqqan nizolar soni bilan belgilanadi.

Hozirgi sharoitda rahbar faqat o'z sohasini yaxshi bilibgina qolmay, balki yaxshi tashkilotchi, ruhshunos, tarbiyachi va ijtimoiy yetakchi bo'lmog'i lozim. Buning uchun har bir rahbar xodim sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va huquqshunoslik fanlarini mustaqil egallashi kerak. Buni hayotimizdagi jiddiy o'zgarishlar, inson omilining faollashuvi, o'z-o'zini boshqarish sharoitida jamoalar bilan ishlash taqozo etadi. Jamoaga a'zo bo'lgan har bir shaxsning qalbiga yo'l topa bilish rahbar ish faoliyatida asosiy ahamiyatga ega. Buni bilgan rahbar o'z jamoasi ichidagi mehnat jarayonida vujudga keladigan har xil nizolarni jamoada, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda yuqori tashkilotlarga chiqarmasdan hal qilishga qodir bo'ladi.

Bunday rahbar o'z ishini to'g'ri tashkil qilgan bo'lib, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad va reja topshiriqlarini o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajaradi. Jamoalarda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit yaratish uchun rahbar har bir ishchi, xizmatchi xodimlarning shaxsiy fazilatlarini, yoshini inobatga olishi, ishchilar o'rtasida hamkorlikni va o'zaro yordamni bir-birlari bilan chambarchas bog'laydigan ijtimoiy-ruhiy aloqa maromini, iqtisodiy musobaqani tashkil etishga, mehnat jamoalarida ish faoliyatining pirovard natijalari uchun har bir ishchining mas'uliyatini sezish tuyg'usini mustahkamlashga, jamoa a'zolarining yuqori unum bilan mehnat qilishi, uning ijodiy g'ayratini kuchaytirish uchun qulay ijtimoiy-ruhiy sharoitlarni yaratishga e'tibor berishi zarur.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini boshqarish ob'ektiv qonunlarga muvofiq ijtimoiy mehnat jarayoniga ta'sir etishni yaxshilash va ma'lum bir maqsadga yo'naltirishning aniq tarixiy usulidir. Ishlab chiqarishni boshqarishning vujudga kelishi va vazifalarining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi mehnat tahsimoti va mehnat kooperatsiyasi natijasidir.

Qishloq xo'jalik korxonasini boshqarishning mohiyati korxonaning butun jamoasi va uning ishlab chiqarish bo'linmalari ishini mehnat va mablag'lardan samarali foydalangan holda, maksimum miqdorda yuqori sifatli mahsulot yetishtirish uchun yo'naltirishdan iboratdir.

Qishloq xo'jalik korxonasini boshqarish uchun ko'p narsalarni bilish, o'qimishli, madaniyatli, intizomli rahbar bo'lish lozim. Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi bilan qishloq

xo'jaligi sanoat asosiga o'tishi natijasida ishlab chiqarishni boshqarishni roli o'sib boradi. Xo'jalikda ko'p mutaxassisliklarga ega xodimlar mehnat qiladilar, ularning ishlarini umumiy reja asosida operativ yuqori samara beradigan qilib yo'naltirish lozim. Qishloq xo'jaligini idora qilmoq uchun undan xabardor bo'lish kerak, ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ham mukammal va aniq bilish kerak, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi texnikasini bilish, ma'lum ilmiy ma'lumotga ega bo'lish zarur. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni ilmiy boshqarish quyidagi tamoyillarga: rahbarlik qilishning ma'naviy va xo'jalik birligi, demokratiya, yakkaboshchilik va ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi manfaatdorlikka asoslanadi.

Qishloq xo'jaligida boshqarishning tub tamoyillaridan biri demokratiyadir, u rahbarlikni ommaning keng tashabbusi va ijodiy faolligi bilan to'g'ri qo'shib olib borishning umumiy maqsad tomon xarakat yo'llari, usullari va vositalarining hilma-hilligini kollegiallik bilan yakka boshchilikni bo'lish, birga qo'shib olib borishni nazarda tutadi. Qishloq xo'jaligi korxonasini boshqarishga ilmiy yondashish fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish mehnatni boshqarishni ilmiy tashkil etish usullaridan maksimal foydalanishni talab etadi. Qishloq xo'jalik korxonalarini rejalariga ilmiy yondashish ishlab chiqarish vazifalarining hal qilinishiga bog'liq. Rejaning bajarilishini tahlil qilish uchun operativ, buxgalteriya, statistika, ilg'orlarning tajribalari hisobi kerak.

Boshqarishda yakkaboshchilik tamoyili istisno qilinmaydi, aksincha, rahbarning xodimlar bilan mustahkam aloqada bo'lishini va xodimlarga suyana bilishini taqozo etadi. Buning uchun xodimlar bilan tez-tez suhbatlashib, turli hil rejalar asosida korxonaning umumiy majlisini chaqirib turish, puxta tayyorlangan ishlab chiqarish kengliklarini o'tkazib berish lozim.

Qishloq xo'jaligini boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: qishloq xo'jaligi korxonalarining va ularning bo'limlarini tashkil etish, bo'limlarga shartnoma asosida reja belgilash, bu rejalarining bajarilishini tashkil etish, ishlab chiqarishning borishini doimiy nazorat qilib borish. Rahbar xo'jalikni boshqarishni «Davlat ishlab chiqarish korxonalarini to'g'risidagi» gi Nizom yoki «Qishloq xo'jaligi korxonasi ustavi» asosida tashkil etiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalariga rahbarlik uslublariga, jiddiy yondoshmoq lozim. Masalan, qaysi rahbar tanqid va gap qaytarishlarga chidamsiz bo'lsa, u dag'allik bilan mustabid buyruqlar beradi. Bunday holda jamoa a'zolari faollik va tashabbus ko'rsatmaydilar. Qachonki asosiy tamoyilda masalalar jamoa muhokamasiga qo'yilib, har tomonlama tahlil qilinsa, bu uslub demokratik uslub hisoblanadi va korxonani a'zolarining faolligini oshirishga yordamlashadi. Agar rahbar o'zining aniq fikriga ega bo'lmay, boshqalarning takliflariga og'uvchi, boshqalar fikriga beriluvchi bo'lsa, bu liberal uslub hisoblanadi va bu uslub o'zini oqlay olmaydi.

To'g'ri, ilmiy asoslangan rahbarlik hamma uslublarning oqilona yig'indisini tashkil etadi. Har qanday farmoyish aniq iqtisodiy hisoblarga va moddiy hamda ma'naviy manfaatlariga asoslangan bo'lishi kerak. Qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqarishning uchta muhim funktsiyalari mavjud: jamoa a'zolarini ma'naviy jihatdan tarbiyalash, iqtisodiy ta'sir etish, tashkiliy-texnikaviy jihatdan rahbarlik qilish. Boshqarishdagi har bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Boshqarish tuzilmasi xo'jalikni ichki tomondan ixtisoslashtirishga, ishlab chiqarishni optimallashtirish va hajmiga, intensivlash darajasiga, xo'jalikni texnika bilan qurollanganligiga, aloqa vositalari sistemasiga, kadrlar tayyorlash ishiga, transport aloqalari darajasiga, tabiiy sharoitga, iqlim va boshqa omillarga bog'liqdir.

Boshqarish - qarorlarni tayyorlash va qabul qilish, ya'ni axborotni to'plash, uni ishlab chiqish, tahlil etish, qabul qilingan qarorlarni ijro etuvchiga yetkazish va bu qarorlarning bajarilishi jarayonini o'z ichiga oladi. Hukumat qarorlarida hozirgi sharoitda rejalashtirish sistemasini va qishloq xo'jaligini boshqarishni takomillashtirish uchun iqtisodiy-matematik uslublarni keng qo'llash va elektron-hisoblash texnikasi, tashkiliy texnika, ilg'or aloqa texnikasidan foydalanish lozimligi alohida ta'kidlangan.

Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddat ijaraga berilgan yer uchastkasidan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi

a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish asosida daromad, foyda olish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash hamda o'z a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish fermer xo'jaligining maqsadi hisoblanadi. «Qishloqda boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish jarayonida birlamchi qishloq xo'jalik bo'g'ini qanday bo'lishi kerakligi aniq ma'lum bo'ldi. Bu – fermer xo'jaligini birlashtiradigan va ularga xizmat qiladigan, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan va moddiy-texnikaviy, ta'minot, texnika, agrokimyo xizmati ko'rsatish masalalarida yordam beradigan kooperativ bo'lishi lozim»¹.

Hozirgi vaqtda bizning iqtisodiy taraqqiyotimizning birdan-bir yo'li – bu ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlaridir. Tabiiyki bu yangi boshqaruv uslubining shakllanishiga olib keladi.

Xaqiqiy tadbirkor ishbilarmonlik olamida faqat o'ta yuqori daromad xaqida g'amxo'rlik qilmasdan, balki ishni yaxshi sifati va uning korxonasidagi mehnatkashlarnig farovonligi xaqida o'ylashi zarur.

SHuning uchun paxta yetishtirishni rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida xo'jaliklarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha a'zolarning ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlarini bozor talablari asosida tubdan o'zgartirish lozim. Ya'ni, ular mahsulot yetishtirish, yig'ishtirib olish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni vaqtida, oqilona amalga oshirishga alohida e'tibor berishlari kerak.

Yuqorida ta'kidlangan barcha tadbirlar vaqtida, sifatli amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori ko'payib, ularning samaradorligi yuksalishi ta'minlanadi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1995. -63-b.

II bob. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati va uning iqtisodiy tahlili

2.1. Namangan viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligi tarmoqlari shakllanishi va samarali faoliyat ko'rsatishi qator omillarga bog'liq. Avvalo, tabiiy omillar, ya'ni yer-suv resurslari, hayvonot va o'simliklar dunyosi talab etiladi. SHuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ahamiyati katta. Jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, aholi va mehnat resurslari, agrotexnik jarayonlar va bozor infratuzilmasi tarmoqlari yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Bunga o'xshash shart-sharoitlar mamlakatning turli mintaqalarida bir xil emas.

Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 7,44 ming kv.km. Viloyat chegaralarining muhim xususiyatlaridan biri ularning aksariyati tekislik-lar orqali o'tishidir. Hatto qo'shni respublikalar (Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari) o'rtasidagi chegaralar ham qulaydir. Ularni bog'lab turuvchi transport yo'llari ham tarixiy-iqtisodiy jihatdan yaxshi o'zlashtirilgan hududlar orqali o'tadi. Umuman olganda, viloyatning geografik o'rni uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qulayliklar yaratadi.

Tabiiy omillar Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi tarmoqlari shakllanishi va faoliyati samaradorligi uchun ijobiy baholanadi. Viloyat hududining geologik tuzilishi ancha murakkab bo'lib, vertikal mintaqalilik (tekislik-tog') yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Yer yuzasi shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa tomon pasayib boradi. Tekislik mintaqasida (Mingbuloq tumani) g'arbiy shamollarning sekundiga 15 metrdan ortiq harakatlanishi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga sezilarli darajada zarar yetkazadi. Bug'lanishning yuqori bo'lishi (120-150 mm) va qish oylarida ham (10 mm) davom etishi sho'rlanish va ikkilamchi sho'rlanishning oldini olishga qaratilgan meliorativ tadbirlar majmuasini amalga oshirishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvida yer va suv resurslari muhim o'rin tutadi. Pop tumanidan Uychi tumanining sharqiy hududlariga qadar uziq-uziq ko'tarilib turgan och tusli bo'z tuproqlar egallab yotadi. Viloyat hududining 60 foizida sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Sug'orma dehqonchilikda intensiv rivojlangan adirlar mintaqasi – Pop, CHust, To'raqo'rg'on (shimoliy hududlarida), Kosonsoy tumanlari alohida o'rinda turadi. SHuningdek, XX asrning 70-yillari o'rtalaridan boshlab adirlarning intensiv o'zlashtirilishi oqibatida tuproqning yuqori unumdorlik qoplami yuvilib, shag'alli qismlari ochilib qolishdan tashqari, suv urib ketgan o'pirilmalar yuzaga kelmoqda. Sug'orish eroziyasiga qarshi tadbirlar majmuasini, ya'ni paxta va g'allani almashlab ekish asosida tuproq tarkibini yaxshilash, uning yuvilishga chidamlilik darajasini oshirish, turli polimerlardan foydalanish va sug'orish agrotexnikasini tubdan yaxshilash kabilarni amalga oshirishni taqozo etadi. Namangan viloyati aynan shu jihatlari bilan ham qo'shni Farg'ona va Andijon viloyatlaridan farq qiladi.

Mintaqa hududini tashkil etgan daryo va soylar muhim xo'jalik ahamiyatiga molikdir. Bu yerda 20 ga yaqin daryo va mavsumiy soylar bor. Mavjud suv resurslari qadimdan sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish va aholi joylashuvining asosi bo'lib xizmat qilgan. 1920-1930 yillarda Norin, G'ovasoy, Podshootasoy, Yangiariq, Kosonsoy, CHortoqsoy hamda bir necha sun'iy sug'orish tizimlaridan foydalanish orqali minglab gektar yerlarni o'zlashtirish va suv ta'minotini yaxshilashga erishildi. SHuningdek, 1942 yilda Kosonsoy va CHust tumanlari hududidan 40 km.dan iborat CHust kanalini o'tkazilishi viloyatning adir mintaqasida 4,4 ming gektarga yaqin yerlarni o'zlashtirishga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Xodikent kanalini kengaytirilishi va uzaytirilishi ham ushbu hududda qo'shimcha yerlarning o'zlashtirish imkonini berdi.

Viloyatda 1966-1970 yillarda irrigatsiya qurilishlari va artezian quduqlar barpo etilishi natijasida 16,7 ming gektarga yaqin yerlar o'zlashtirildi va 6,0 ming gektar adir yerlarning suv

ta'minoti yaxshilandi. Katta Namangan kanalining barpo etilishi ham qishloq xo'jaligida 20,0 ming gektar yerni kengaytirishga sabab bo'ldi¹.

Namangan viloyatidan 2 ta daryo oqib o'tadi. Norin daryosining uzunligi viloyat hududida 38 km.ni tashkil etib, suv o'tkazish qobiliyati 3000 kubometr ga va Qoradaryo uzunligi 20 km., suv o'tkazish qobiliyati 8000 kubometr ga teng. Bu daryolar qo'shib, O'rta Osiyoning asosiy suv havzalari-dan biri Sirdaryoni (viloyat hududida uzunligi 96 km., suv o'tkazish qobiliyati 4000 kubometr) hosil qiladi. Tyan-SHany tog' tizimiga kiruvchi tog'lardan ko'plab daryo va soylar viloyatning adir, adirorti tekisliklari va tog' oldi hududlarini intensiv o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ularning aksariyati Sirdaryoga deyarli yetib bormaydi va tamomila sug'orishga sarflanadi.

Umuman, Namangan viloyati umumiy yer maydoni jihatidan Farg'ona vodiysi viloyatlari orasida yetakchi o'rinda turadi va mamlakatning boshqa viloyatlariga nisbatan suv bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, mintaqaning shimoliy hududlaridagi daryo va soylar Andijon, Farg'ona viloyatlariga qaraganda kamsuvligi bilan ajralib turadi. SHuningdek, Toshkent va Jizzax viloyatlari kabi tabiiy resurslar salohiya-ting nisbatan kattaligi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarki-bida dehqonchilik mahsulotlari o'rtacha 56,0 foizni tashkil etishi bilan ma'lum bir afzalliklarga ega.

Ayni vaqtda Namangan viloyati agroiqlimiy xususiyatlar natijasida shakllangan qishloq xo'jaligi mintaqasi hisoblanib, mavjud tabiiy hamda ichki omillar paxta sanoat majmuasi, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik va shu bilan bir qatorda chorvachilikning rivojlanishiga ijo-biy ta'sir etadi.

1960 yillardan boshlab Namangan shahri atrofida va tog'oldi hududi-da ixtisoslashgan xo'jaliklar (qishloq xo'jaligini xalqasimon joylash-tirish – «Tyunen xalqalari»¹) yuzaga keldi. 1970 yilning o'rtalaridan boshlab CHortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy tumanlarining tog'oldi hududlarida «oziq-ovqat» mintaqasini barpo etish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar tufayli paxta xomashyosini «baland tog' mintaqasida» yetishtirishga ham barham berildi. SHuningdek, sabzavot ekinlari deyarli barcha paxtachilik va bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklarida, poliz mahsulotlari esa asosan tekislik mintaqasida – Mingbuloq, Pop tumanlarida yetishtiriladi. Kartoshkachilik tog'oldi CHust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, CHortoq tuman-lari xo'jaliklarida yetishtiriladi.

Bog'dorchilik qadimiy soha bo'lishiga qaramay, 1993 yildan boshlab bog'larning tarkibini o'zgartirish, danak mevali bog'larni kengaytirish sohasida jiddiy tadbirlar amalga oshirildi. Uzumchilik mahalliy xarak-terga ega bo'lib, uning xo'raki navlari asosan aholi xo'jaliklarida, vinobop navlari esa tekislik, adir va tog'oldi hududlarida joylashgan qishloq xo'jaligi korxonalarida rivojlangan.

Bugungi kunda qulay agroiqlimiy shart-sharoitlar ta'sirida mintaq qishloq xo'jaligida o'ziga xos tarmoqlar va hududlar ishlab chiqarishi vujudga keldi. Mintaqada asosan sug'orma dehqonchilik rivojlangan bo'lib, paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va polizchilik tarmoq-lari shakllangan. Ayni vaqtda, chorvachilik tarmog'ida qo'ychilik va echkichi-lik, qoramolchilik, parrandachilik rivojlangan bo'lib, bu tarmoqda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqoriligi bois ixtisoslashgan soha hisoblan-maydi.

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari tarkibi-ning o'zgarishi uning hosildorigiga ham jiddiy ta'sir qildi. Jumladan, paxta maydonlarining qisqarishi hisobiga paxta hosildorligi 1991 yilda 31,1 tsentnerni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga kelib bu ko'rsatkich 26,1 tsentnerni yoki 16 foizga kamaydi. G'alla maydonlarining kengayishi qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ldi. 1991 yilda g'alla hosildorligi 35,6 tsentnerni, 2009 yilda 50,8 tsentnerni yoki 142,7 foizga teng bo'ldi. Lekin, meva va uzum yetishtirishdagi hosildorlik sezilarli ravishda pasaydi (1-jadval).

¹ Abdullaev O. Namangan viloyati (tabiati, aholisi, xo'jaligi).-Namangan: NamDU, 1995. – 24-23-b.

¹ Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma/ A.S.Soliev, E.A.Ahmedov, R.Y.Mahamadaliev va b. – T.: Universitet, 2003. – 57-58-b.

1-jadval

Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi²
(ts/ga. hisobida)

№	Mahsulot turi	Yillar				2010 y.da 1991 y.ga nisbatan, foiz hisobida
		1991 y.	1995 y.	2000 y.	2010 y.	
1	Paxta	31,1	31,3	26,2	26,1	83,9
2	G'alla	35,6	36,7	33,2	50,8	142,7
3	Kartoshka	101,9	143,8	150,2	126,0	123,6
4	Sabzavot	209,7	236,2	195,8	196,4	93,6
5	Poliz	130,3	142,8	101,2	170,9	131,1
6	Meva	50,0	41,7	42,3	34,5	69,0
7	Uzum	54,0	74,6	49,3	37,9	70,2

Viloyat tarkibida Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlari paxta hosildorligining yuqori ko'rsatkichlari (o'rtacha 30 tsentner) bo'yicha ajralib turadi. Don tayyorlashda Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on tumanlari o'rtacha 60 tsentner hosildorlikka ega. Hosildorlik bo'yicha tafovutlar tuproq unumdorligi darajasi bilan birga boshqa omillarga bog'liq holda ham belgilanadi. Jumladan, yuqoridagi tumanlarda an'anaviy ravishda mahalliy o'g'itlardan foydalanishga ko'proq e'tibor qaratilishi bilan izohlanadi. Sabzavot va kartoshka yetishtirishda tog' oldi tumanlari qulay tabiiy sharoitlarga ega bo'lsada, ertangi sabzavot va kartoshka yetishtirish hisobiga tekislik hududidagi tumanlarga nisbatan yuqori hosilga va daromadlarga erishilmoqda (2-jadval).

2-jadval

**Namangan viloyati hududiy tarkibida qishloq xo'jalik mahsulotlarining 2002-2009
yillardagi o'rtacha xosildorligi³**

Tumanlar	Paxta	Don	Sabzavot	Kartoshka	Meva	Uzum
Mingbuloq	18,3	41,3	203,1	-	40,1	50,0
Kosonsoy	20,4	45,2	141,8	122,4	11,4	28,4
Namangan	30,4	56,6	244,5	213,7	43,6	33,0
Norin	25,1	61,2	200,9	163,8	53,9	68,5
Pop	19,7	44,2	92,6	90,0	30,6	9,5

² Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

³ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

To'raqo'rg'on	29,8	60,9	99,0	146,0	35,0	72,3
Uychi	29,4	52,9	173,7	144,5	26,2	32,1
Uchqo'rg'on	29,4	64,0	266,2	148,4	51,4	53,0
CHortoq	26,0	48,4	254,8	160,1	46,9	30,5
CHust	22,0	39,6	166,2	132,4	8,4	27,7
Yangiqo'rg'on	22,5	45,1	204,0	116,4	43,1	42,6
Viloyat bo'yicha	26,1	48,9	196,4	126,0	34,5	37,9

Mintaqada qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash hududiy tarkibi-ni tahlil qilsak, paxtachilik barcha tumanlar uchun yetakchi sohadir. Mingbuloq, Pop, Uchqo'rg'on tumanlari bu sohada yetakchi hisoblanib, viloyat-dagi paxta maydonlarining 46,6 foizini egallagan holda yalpi hosilning 42,4 foizini beradi. G'allachilik ham mustaqillik yillarida barcha tumanlar uchun ixtisoslashgan soha bo'lib qoldi. Bu hududlarda viloyat sabzavot-chiligining 53,0 foizi, kartoshkaning 88,4 foizi yetishtiriladi. Bog'dorchi-likda ham Yangiqo'rg'on, CHortoq, CHust, Kosonsoy kabi tumanlar ekin maydoni va mahsulot yetishtirish hajmi bo'yicha yetakchidir. Zero, ushbu tarmoqlarni rivojlantirish uchun mazkur tumanlarda qulay agroiqlimiy sharoitlar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sabzavot va kartoshka mahsulotlari viloyat adirlarining shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy hududlarida joy-lashgan qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtiriladi.

CHorvachilikda qo'y va echkichilik ham birmuncha rivojlangan tarmoq hisoblanadi. Mazkur soha hatto Namangan shahri uchun ham xarakterlidir. Namangan shahri aholi xo'jaliklaridagi qo'y va echkilar viloyatdagi qo'y va echkilarning 20 foizini tashkil qiladi. Ayni paytda CHust, Pop, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, To'raqo'rg'on tumanlari ham yuqori ko'rsatkichlarga ega. Qoramolchilik bo'yicha Namangan shahri, CHust, Yangiqo'rg'on, Pop, Uchqo'rg'on tumanlarining ulushi yuqori darajani tashkil etadi.

Agrar islohotlarning natijasi o'laroq, viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini mulkchilikning nodavlat shakllariga mansub sub'ektlar tomonidan ishlab chiqarilmoqda, ya'ni nodavlat sektorning ulushi qariyb 99,6 foizni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoniga muvofiq hozirgi paytda fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligini yuritishning ustivor shakli sifatida tanlab olindi va ularni jadal rivojlantirish choralari qo'rilmogda¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida» 2004 yil 4 noyabrdagi F-2069-son Farmoyishini bajarish yuzasidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritishning asosiy shakli sifatida fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda Vazirlar Mahkamasining «2005-2007 yillarda fermer xo'jalik-larini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2004 yil 24 dekabrdagi 607-sonli Qarorini viloyatda bajarilishini ta'minlash maqsa-dida mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilgan.

SHu jihatdan, Namangan viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida meva va sabzavot, uzum, kartoshka mahsulotlarini qishqi va bahorgi mavsum uchun saqlash asosida savdoni tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Mintaqada ushbu mahsulotlarni saqlovchi 25 ming tonnalik omborxonalar mavjud². CHunonchi, Yangiqo'rg'on tumanidagi 1,5 ming, Namangan tumanida 1,57 ming, CHortoq tumanida 1,0 ming tonna mahsulotlarni sovtish va uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan omborxonalar mavjud bo'lib, qulay transport hola-tiga ega. SHuningdek, boshqa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoni. «Halq so'zi» gazetasi, 25 mart 2003 y, № 66 (3178).

² Abdullaev O. Jumhuriyatlararo agrosanoatni tashkil etish muammolari.-T.: Mehnat, 1991. – 152-153-b.

tumanlardagi ixtisoslashgan shirkat xo'jalik-lari ham meva-sabzavot, poliz va uzum mahsulotlarini saqlash imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

2.2. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar

Bozor munosabatlari tizimida qishloq xo'jaligi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasining barcha mintaqalarida qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini rivojlantirish va ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini jahon talablariga yetkazish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. SHu jihatdan, qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan ishlab chiqarish va sotish tarmoqlarini hamda shu tarmoqlarga mos iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi va mintaqaviy tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi. Bu borada Namangan viloyatida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida chorvachilik tarmog'ida yer resurs-laridan foydalanishning samarali harakat mexanizmi ishlab chiqilmagan. Respublika chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi va sotish bahosi o'rtasidagi mutanosiblikka aksariyat hollarda amal qilinmasligi chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning og'ir moliyaviy holatga tushib qolishiga olib kelmoqda. Natijada boshqarib bo'lmaydigan tovar oqimlari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishmasligi sharoitida ularni taqsimlash va iste'mol qilishda ma'lum nomutano-sibliklar vujudga kelmoqda.

Keyingi yillarda chorvachilik mahsulotlari bahosi oshib borgani bilan uni ishlab chiqarishga ketgan harajatlar miqdori yanada yuqoriroq darajada o'sdi. Bu esa mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan chorvadorlarning moddiy manfaatdorligi yetarli darajada uzviy bog'lanma-ganligini ifoda qiladi.

CHorvachilik mahsuloti tannarxining yuqoriligi va uning pasayishi jarayoni mavjud emasligi mazkur tarmoqda mahsulotning asosiy qismi dehqon xo'jaliklari va aholi xo'jaliklarida ishlab chiqarish bilan izohlanadi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarning ozuqa resurslari bilan hamda ozuqa ishlab chiqarishda foydalaniladigan yer resurslari bilan ta'minlanishi yetarli emasligi oqibati bilan bog'liq. Boshqa tarmoqlarning rivojlanishi esa ozuqa yetishmasligi muammosini yechishga juda kam ta'sir etmoqda.

Qayd etilganidek, chorvachilik mahsulotlarining ko'payishi ko'p jihatdan iqtisodiy manfaatdorlikka bog'liq. Ayni paytda xo'jalik-larning ko'proq daromad olishi yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishdan iborat kooperatsiyaga birlashishni taqozo etadi. Agar xo'jalik-larda qayta ishlash uchun moddiy baza bo'lmasa, mahsulotning katta qismi nobud bo'ladi yoki boshqa tashkilotlardan uskunalarni ijaraga olish tufayli qayta ishlash harajatlari ko'payib boradi. Har ikkala holat ham bozorga salbiy ta'sir etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida tumanlardagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining faoliyati qisqardi. Bu jarayon, ayniqsa Norin, Uchqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Namangan tumanlarida sezilarli ravishda ko'zga tashlandi. Viloyat markazida joylashgan yirik qayta ishlash korxonalarini chorvachilik mahsulotlarini aholidan yig'ib olish va yo'l harajatlarini qisqartirish maqsadida aholi qo'rg'onlarida maxsus punktlar tashkil etilishiga qaramay bir muncha murakkab jarayon yuzaga kelmoqda. SHuning uchun ham go'sht va sutning dastlabki bozorida mayda vositachilarning faoliyati tez rivojlanishi kuzatilmoqda. Ular xo'jalik-lardan mahsulotlarni yig'ib, shahar bozoriga olib chiqishadi va shuningdek qayta ishlash korxonalarini ham ta'minlaydilar, hisob-kitob esa asosan naqd pul orqali amalga oshirilmoqda. Vositachilar faoliyatining ijobiy natijalarini qayd etish bilan birga, ular tomonidan xo'jalik qonun-chiligiga va adolatli tijorat tamoyillariga rioya qilmaslik hollari ham ko'plab uchraydi.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori o'zining savdo ko'lami, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatidagi o'rni va salmog'i, mablag'larning doiraviy aylanishini ta'minlash bo'yicha mintaqa iqtisodiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan tuzilma sifatida

shakllanmoqda. Tarmoqlar bo'yicha dehqonchilik mahsulotlari ulushi 56,0 foizni, chorvachilik mahsulotlari 44,0 foizni tashkil etadi. CHunonchi, bunday ko'rsatkichga erishishda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'rni mavjud.

Agrar sohadagi natijalar va muammolar, islohotlarni amalga oshirishdagi ayrim kamchiliklar viloyatda sabzavot, kartoshka, meva va chorvachilik mahsulotlari bozorining shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Yer resurslari cheklanganligi sharoitida ushbu mahsulotlar bozorini rivojlantirishda asosiy e'tiborni intensiv usullarga qaratilmog'i lozim. Ushbu mahsulotlar taklifi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining holatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, aholi ularni iste'mol qilishi darajasini belgilab beradi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida korxonalarini tashkil etishning o'ziga xos xusu-siyatlari yer bilan ta'minlanganlik va yerdan foydalanish muammolari bilan bog'liqdir. Yer maydonlarini kelajakda kengaytirish cheklanganligi bois, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish bugun va istiqbolda ham dolzarb bo'lib qoladi, chunonchi:

–Namangan viloyati qishloq xo'jaligi yerlarining aksariyat qismini unumdor tuproqlar tashkil etadi. Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, CHortoq tumanlari 60-70 bonitet ball ko'rsatkichlarga ega;

–Mingbuloq va Pop tumani yerlari nisbatan past sifatli bo'lib, bu hududlardagi yerlarni fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli foydalanish asosida birlashtirib berish, ekinlar tarkibini to'g'ri joylashtirish va almashlab ekishni istiqbolli dasturlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq;

–sug'oriladigan yerlar yirik konturlardan iborat va ularni bir necha fermerlarga bo'lib berish maqsadga muvofiq emas. CHunki, bunday hollarda sug'orish shoxobchalaridan, texnika va qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanish samaradorligi pasayadi.

Namangan viloyatida qishloq xo'jalik tarmoqlarini tashkil etishda xo'jaliklarning iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda mavjud tabiiy shart-sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish uchun quyidagi muammolarni hal qilish maqsadga muvofiqdir:

-qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirishning chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va mahsulotlarning raqobatbardosh-ligini oshirish;

-tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, qishloq xo'ja-lik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarini o'rtasida yagona maqsadli bozorni tashkil qilish;

-xaridorlarning to'lov qobiliyatini muntazam o'rganish asosida mahsulotlarni sotish yo'nalishlarini takomillashtirib borish.

Mulk shakllarining o'zgarishi agrar sohada iqtisodiyotning ko'p ukladli sektorini rivojlantirishni va uni barpo etayotgan bozor munosabatlari tizimiga kiritishni taqozo qiladi. SHu jihatdan, bozor munosabatlari yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatni yuzaga keltiradi.

Namangan viloyatida yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asosiga egaligi, tarkibida ko'p tarmoqlar mavjudligi hamda majmua hosil qiluvchi omillar ta'sirining yuqoriligi va o'ziga xos hududiy ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi. SHuningdek, mahsulotlarni sotilishini ta'minlovchi infratuzilmaning moddiy-texnik bazasi zaifligi ixtisoslashgan tarmoqlar tarkibini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

SHu jihatdan, qishloq xo'jaligida shakllangan va chuqurlashib borayotgan ko'p ukladlilik raqobat vositalarini jiddiy ravishda kengaytirmoqda. Ayni paytda iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, to'laqonli qishloq xo'jaligi korxonalarining tobora to'laroq ravishda bozor tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatishi ularning o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, ya'ni yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni ifodalamoqda.

Qishloq xo'jaligi xomashyosi ishlab chiqaruvchi korxonalar resurslarni qo'lga kiritishda va erkin raqobat muhitida faoliyat olib borgan holda mahsulotni monopol xaridorga sotishlari qator moliyaviy va boshqa muammolarni keltirib chiqaradi.

Bunday salbiy hodisalar davlat buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilayotgan paxta va davlat buyurtmasi bekor qilingan pilla xomashyosi uchun ham xosdir. SHuning uchun qishloq xo'jaligi

korxonalarining mazkur mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishdan iqtisodiy manfaatdorligi yetarli darajada emas.

Ma'lumki, raqobat holatlariga ta'sir etuvchi asosiy omil mahsulot-larga belgilangan narx hisoblanadi. SHu jihatdan, Namangan viloyatida «O'zdonmahsulotlari» korporatsiyasi tizimiga kiruvchi aktsiyadorlik jamiyat-larida asosiy xomashyo – bug'doyning xarid hamda shartnomaviy narxlari ularning sifatlariga qarab o'rnatilgan. Xo'jaliklarni rag'batlantirish maqsadida bug'doyning xarid narxlarini yil sayin oshirishi uning yalpi hosil hajmini o'sishiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Namangan viloyati qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida paxta xomashyosi muhim o'rin tutadi. Tarixiy-iqtisodiy jihatdan paxtachilik mintaqada ustuvor ravishda rivojlangan bo'lib, uning yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibidagi ulushini kamayishi so'nggi o'n yillikda, mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligiga erishish zaruriyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'ldi. Paxtachilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i sifatidagi mavqeiga ega va yaqin istiqbolda ushbu tendentsiya saqlanib qolishi kutilmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida talab va taklifning nisbatan barqaror hajmlari viloyat qishloq xo'jaligining eng muhim mahsulotlari bo'lgan paxta va bug'doy uchun xarakterlidir. Albatta, buning asosida ushbu mahsulotlarning davlat buyurtmasi asosida yetishtirish, davlatning moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash borasidagi doimiy g'amxo'rliги tabiiy xoldir. SHu bilan birga, paxtachilikda olinayotgan foyda darajasi qoniqarli emas, mahsulot sotuvchilarning davlat buyurt-masi asosida sotishdan manfaatdorligi yuqori, deb bo'lmaydi.

Paxtachilikdan olinayotgan foyda miqdorining yetarli emasligi sohani rivojlantirishga, bozor uchun taklifni oshirishga salbiy ta'sir etmoqda. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligi korxonalari paxta xomashyosi bozoridagi talabni to'g'ridan-to'g'ri xis etmayapti. SHuningdek, yakka xaridorga mahsulot sotilishi, xomashyo bilan birlamchi qayta ishlashgina muloqotda bo'lishi ishlab chiqarishga ta'sirini zaiflashtirib qo'ymoqda.

Ayni vaqtda xo'jaliklarda yetishtirilgan paxtaning davlat buyurtmasidan ortiqcha qismini erkin raqobat asosida sotib oladigan paxta tozalash zavodlari shakllanmagan. SHuning uchun paxta xomashyosi yetishtirishdagi iqtisodiy manfaatdorlik, davlat buyurtmalarini bajarish, baho va yalpi hosil o'rtasidagi elastiklik mavjud emas. Bu muammolarni mulkchilikning turli shakllariga asoslangan qayta ishlash korxonalarini hududiy tashkil etish va raqobat muhitini yaratish orqali hal etish mumkin. SHu jihatdan, qayta ishlash korxonalarining monopol salohiyatini cheklanishi erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga ko'maklashadi va tarmoqda ko'proq foyda olish imkoniyati vujudga keladi. Bunday sharoitdagina don mahsulotlariga nisbatan paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligi ishlab chiqaruvchilar uchun amalda ta'min etiladi. Bunda gorizontaal iqtisodiy aloqalar asosida zarur moddiy resurslar ta'minlansa, iqtisodiy raqobat muhiti shakllanib, turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik sub'ektlari teng huquqli sub'ektlar sifatida bozor munosabatlarida ishtirok etishi imkoniyatlari kengayadi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish o'z navbatida, bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlatning agrar siyosatida hamda viloyatlarning mintaqaviy dasturlarida jiddiy o'zgarishlarni taqozo etadi. Aslida bunday o'zgarishlarning zarurligi mamlakat miqyosida izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish tadbirlari tub mazmunidan kelib chiqadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirilishi sharoitida mintaqalarning mustaqilligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Namangan viloyatida bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasi esa uning iqtisodiyotida yetakchi rol o'ynayotgan tarmoqlarda bevosita bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishga erishilganligi bilan belgilanadi.

Umuman, Namangan viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlari faoliyatining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni aksariyat qismi nodav-lat sektorga to'g'ri kelishi va uni jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi;

- er resurslari taklifi nisbatan cheklanganligi va tuproq unum-dorligi (asosan shimoliy hududlarda) qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etishi;
- er resurslarining joylashishi, sifatiga bog'liq holda qishloq xo'jaligi korxonalarining istiqbolli rivojlantirish imkoniyatlari cheklanganligi;
- qishloq xo'jalik korxonalarining ustun darajada davlat buyurtmasi bo'yicha paxta va g'alla mahsulotlari ishlab chiqarishga xo'jalik ixtisoslashuvi;
- erkin narxlarning mavsumiy tebranishi hisobiga meva va poliz mahsulotlariga ixtisoslashgan qayta ishlash korxonalari faoliyati to'xtab qolishi;
- hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan qayta ishlash korxonalari monopol salohiyatga ega va ushbu sohada nodavlat sektor ulushi deyarli mavjud emas.

2.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda infratuzilmalar tizimi

Namangan viloyatida qishloq infratuzilmalarini rivojlantirish bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy natijalarni ko'zda tutadi. Bu borada kutilayotgan iqtisodiy natijalar pirovardida quyidagilar gavdalanadi:

- viloyat xo'jaligining ixtisoslashuvida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ustivor tarmoq sifatida yaqin kelajakda ham saqlanib qolinishi sharoitida, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini samarali tashkil etish, yangi barpo etilayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarining agroinfratuzilma xizmatlariga bo'lgan extiyojini to'laroq qondirish, shu orqali ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarishni texnik, kimyoviy o'g'itlar, yangi o'simliklar navlari va hayvon nasllari ta'minotini izchil yo'lga qo'yish;

- fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek, xo'jalik faoliyatining barcha sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy va moddiy imkoniyatlari darajasida mahallii shart-sharoitlarni inobatga oluvchi xizmatlar ko'rsatish tizimlarini yuzaga keltirish;

- viloyat iqtisodiyotining tarmoq tarkibini kengaytirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish orqali ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, shu orqali tuman moliya-iqtisodiy barqarorligini, mustaqilligini ta'minlash;

- viloyatda ijtimoiy mahsulot hajmini oshirish orqali pul mablag'larining ichki harakatini faollashtirish, pul aylanmasi hajmini oshirish, ya'ni, aholi iste'mol xarajatlari hajmida tuman xo'jaligi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar realizatsiya ulushini ko'paytirish va boshqalar.

Qishloq infratuzilmalarini rivojlantirishda kutilayotgan ijtimoiy natijalar zamirini quyidagilar tashkil qiladi:

- qishloq xo'jaligining rivojlanib borishi, intensiv xo'jalik tizimini joriy qilishga bo'lgan intilish hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida amalga oshirilayotgan tashkiliy-tarkibiy o'zgarishlar sharoitida qishloq xo'jaligidan bo'shayotgan aholi bandligini oshirishda bandlikni muqobil manbaalarni vujudga keltirish;

- aholi bandlik darajasini oshirish pirovardida aholining barqaror pul daromadlariga ega bo'lishiga imkoniyat yaratish, shu orqali, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun moddiy asosni mustahkamlash;

- aholining muntazam bandligiga erishish, barqaror daromadlarga ega bo'lishi uchun moddiy asosni shakllantirish orqali, tashkil etilayotgan maishiy va ijtimoiy infratuzilmalar hisobiga aholining turmush madaniyatini oshirish;

- ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish orqali tuman xo'jalik ixtisoslashuviga yo'naltirilgan sohalar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish va boshqalar.

Bizningcha, Namangan viloyatida qishloq infratuzilmalarini istiqbolda rivojlantirishda aholi joylashuvi va uning xo'jalik faoliyati tumanning xo'jalik xo'jalik ixtisoslashuvi, investitsion resurslarni jalb qilish hamda davlatning qo'llab-quvvatlash kabi bir qator ustivor yo'nalishlar va vazifalar e'tiborga olinmog'i lozim.

Aholi joylashuvi va uning xo'jalik faoliyati hamda kadrlar salohiyati istiqbolda qishloq infratuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirishdagi asosiy e'tiborini jalb qiluvchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu xizmat ko'rsatish borasidagi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan sanalib, unda ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining bir paytda sodir bo'lishi hamda shu asosida xizmat ko'rsatishda kadrlarning malaka va salohiyati ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasini belgilab berishi bilan izohlanadi. Bugungi kunda Namangan viloyatida 64,7 ming ishga yaroqli aholining 40 ming nafari ijtimoiy ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida band bo'lib, muntazam ish o'rin bilan ta'minlanganlar soni 24,7 mingtani tashkil qiladi. Ayni paytda tumanlardagi aholini viloyat markazi Namangan shahriga mayatniksimon (mehnat) migratsiyasi yuqoridir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, oliy ma'lumotli mutaxassislar o'rtasida o'z ixtisosligi bo'yicha band bo'lmaganlar ko'rsatkichida Norin tumani viloyat tumanlari o'rtasida birinchi o'rinni egallaydi. Ana shu xususiyatlarga ko'ra, aholining malakaviy va kasbiy salohiyatidan unumli foydalanishda infratuzilmalar tizimini tashkil etish eng maqbul yo'llardan hisoblanadi.

Viloyatning xo'jalik ixtisoslashuvini inobatga olish tashkil etiladigan infratuzilmalar tizimining barqaror faoliyati uchun zamin tayyorlaydi. Ma'lumki, infratuzilmalarning samarali faoliyati ko'p jihatdan moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liqdir. Aynan moddiy ishlab chiqarishda yaratilayotgan ijtimoiy mahsulot va undan topilayotgan daromadlar infratuzilmalar xizmatini rivojlantirishni, takomillashtirishni rag'batlantiradi. SHu jihatdan Namangan viloyatida kelajakda kishloq infratuzilmalarini tashkil etishda tumanning bugungi xo'jalik ixtisoslashuvini, shuningdek, aholining tarixan shakllangan xo'jalik faoliyatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishlaridan biri qishloq joylarida sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yishdan iborat bo'lib, kelgusida tashkil etiladigan oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalari (ular asosan kichik hajmda va mahalliy iste'molni qondirishga yo'naltirilgan bo'ladi) uchun xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini yo'lga qo'yishni taqozo qiladi.

Yuqoridagi paragraflarda ta'kidlab o'tilganidek, Namangan viloyatining bugungi moliyaviy holati tumanni kelgusida ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishga imkon bermaydi. CHunonchi, viloyat byudjeti xarajatlarining 20 foizdan ortig'i dotatsiya hisobiga qoplanishi, viloyat xo'jaligining bevosita investitsiyalar jalb qilinishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy sababdir. CHunki, viloyatning bugungi sharoitida unga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish o'ta yuqori darajadagi tavakkalchilik sharoitidagina amalga oshirilishi mumkin. SHuning uchun ham viloyat xo'jaligiga asosan portfeli yoki maqsadli davlat dasturlari doirasida investitsiyalar jalb qilishgina o'zini oqlashi mumkin. Lekin shu bilan birga ta'kidlash joizki, investitsiyalar jalb qilinishida joy yoki xo'jalikning moliyaviy holatidan tashqari yana bir omil, ya'ni, xo'jalikda qaysi tarmoqning rivojlanganligi ham ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi boshqa sohalarga nisbatan eng kam investitsiyalar jalb qilinadigan tarmoq hisoblanadi. SHu sababli viloyat xo'jaligiga kelgusida investitsiyalar dasturini ishlab chiqishda, sanoat hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etish masalalariga diqqatni qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar milliy modelining o'ziga xos tomonlaridan biri jamiyat hayotining barcha jabxalari islohotlar davrida davlat qo'llab-quvvatlashiga tayanishidir. Ayniqsa, birinchi galda ijtimoiy sohalarni, ijtimoiy infratuzilmalar tizimini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish munosabatlari davlat qo'llab-quvvatlashining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. SHundan kelib chiqqan holda Namangan viloyati xo'jaligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda viloyatda istiqbolda qishloq infratuzilmalarini, xususan, qishloq ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishda davlat ko'magiga tayanish kutilgan samarani beradi.

III bob. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

3.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarini daromadini oshirishning asosiy muammolari

Yalpi talab va yalpi taklif, ishlab chiqarish bilan iste'mol, iste'mol va jamg'arish hamda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasida ziddiyat vujudga kelganida va bu ziddiyat kuchayib ketganida inqirozlar yuzaga keladi. Tovar ishlab chiqarishni iste'moldan ajralib qolishi tasodif emas. Texnika taraqqiyoti foyda normasini pasayishiga olib keladi. Ishlab chiqarishdan ishchilar qisib chiqariladi. Avvalgi darajada foyda massasini saqlab qolish uchun ishlab chiqarishni kengaytirishga qo'shimcha kapital, investitsiya sarflanadi. Ishlab chiqarish ijtimoiy iste'moldan ortib ketadi va natijada inqiroz yuz beradi. Tushkunlik paytida samarasiz tovar ishlab chiqaruvchilar bozorni tark etishga majbur bo'lishadi, ular o'rnini bozor talablariga javob bera oladigan yangi ishlab chiqaruvchilar egallaydilar. Yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasida muvozanat o'rnatiladi. SHunday qilib tushkunlik kelgusi yuksalishga poydevor qo'yadi. Muvozanatni buzilishi iqtisodiyotda tang ahvol, krizisga olib keladi. Krizis bu murakkab jarayon. Unga turli jihatdan yondoshish mumkin. Krizislar turli-tuman tarzda ro'y bersa-da, ularni umumiy, o'xshash tomonlarini nazarda tutib guruhlarga ajratish mumkin.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamodalar.

Jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizning 2008 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. «Bunday ta'sir, avvalambor, umuman dunyo bozoridagi talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda eksportga yo'naltirilgan etakchi tarmoqlar va ular bilan bog'liq turdosh korxonalar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, butun iqtisodiyotimizning mutanosib va samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ko'zda tutilgan loyihalarni amalga oshirish, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish yo'lida ko'plab muammolarni tug'dirmoqda. Muxtasar aytganda, 2008 yil biz uchun, birinchi navbatda mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'ldi. Lekin, yuzaga kelgan barcha muammo va qiyinchiliklarga qaramay, xalqimizning fidokorona mehnati va amalga oshirilgan tadbirlar evaziga 2008 yilda iqtisodiyotimizning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishdik»². Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ham muhim ijobiy natijalar qo'lga kiritilib, o'tgan yilga nisbatan 4,5 foiz o'sishga erishildi. 3 million 410 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy etishtirildi.

Og'ir kelgan 2009 yilda mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga o'sdi, murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan, ilk bor 7,3 million tonnadan ziyod don, shu jumladan 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi.

Bozor munosabatlarining to'laqonli amal qilishi hozirgi zamon iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning, iqtisodiyotda yuksak samaradorlikka va mehnat unumdorligiga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni erkinlashtirish tadbirlari faqat butun mamlakat miqyosidagi tadbirlardangina iborat bo'la olmaydi. Mazkur tadbirlar har bir mintaqada o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lishi tabiiy. SHuningdek, bozor munosabatlarini belgilovchi va ularga tasir etuvchi omillar va shart-sharoitlar ham har bir mintaqada o'ziga xos ravishda

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 15-b.

rivojlangan bo'ladi. Boshqa jihatdan olib qaraganda, makro-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab borishga, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va mustahkamlashga viloyatlar munosib hissa qo'shib boradilar. Demak, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim qismini mintaqaviy siyosat va maxsus ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar tashkil qiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti va viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi erkinlik sharoitida har bir hudud ichki imkoniyatlari-dan kelib chiqqan holda o'zining iqtisodiyotini mustahkamlashga harakat qilmog'i lozim. Sobiq tuzum davridagi singari hududdagi barcha qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi joylashuvi va rivojlantirishni markazdan turib belgilab berilishi hozirgi sharoitda o'zini oqlay olmaydi. Aksincha, hududlarda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish negizida zamonaviy xo'jalik tuzilmalarini jadal rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy qudratini ta'min etadi. Ayni paytda viloyatlarning mavjud imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish uchun ularda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilma tarmoqlarini jadal barpo etishga asoslangan holda bozor islohotlarini chuqurlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish davri va jamiyatni demokratik asosda qayta qurishda ustuvor e'tibor hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri va samarali joylashtirishga qaratiladi. Albatta, bunday vaziyatda har bir viloyat alohida iqtisodiy makon sifatida shakllanishga harakat qiladi. Bunda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Eng avvalo, ishlab chiqarish mujassamlashtirishida kichik korxonalar ko'payadi, ixtisoslashuvda esa mahsulot ishlab chiqarishga katta o'rin beriladi. Ayni chog'da markazlashuv jarayoni ham kuchayadi. Chunki, bir tomondan yirik korxonalariga xomashyo yetishmasligi sababli ularda qo'shimcha va butlovchi tseklar yoki bo'linmalar vujudga keladi.

Natijada viloyat agrar sohasining barcha darajalarida, ya'ni keyingi paytlarda davlat tomonidan agrar sohani erkinlashtirishga qaratib ishlab chiqilgan qator tashkiliy-huquqiy me'yorlarga rioya qilinmayapti. Shuningdek, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va bozor munosabatlarini o'zgartirish jarayonlari izchil nazorat ostiga olingan emas. SHu bilan birga ularni to'g'ri yo'lga solish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ilmiy asoslangan yondoshuvlarni taqazo qiladi.

Namangan viloyati iqtisodiyoti respublika iqtisodiy muhitida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Lekin aholining zich joylashganligi va 70,0 foiz aholining qishloq joylarda istiqomat qilishi hamda infratuzilma tarmoqlarini yuqori darajada rivojlanmaganligi sababli viloyatda agrar bozorlar shakllanishining o'ziga xos muammolari yuzaga kelgan.

Ma'lumki, hudud va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri aholi va mehnat resurslarining bandlik darajasidir, qolaversa, bu o'tish davrining eng dolzarb muammosi bo'lib, mamlakatni barqarorlashtirish va mintaqaviy siyosati avvalambor hududlarda ishsizlikning oldini olish, ijtimoiy muhitni yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Binobarin, aholi daromadlari ko'rsatkichi iste'mol omili sifatida namoyon bo'ladi.

Ayni vaqtda qayta ishlash korxonalarini (xaridorlar) tomonidan sut, go'sht, ayniqsa, meva va sabzavotni qayta ishlash uchun yetkazib berilayotgan mahsulot xo'jaliklarga foyda keltirish darajasini ta'minlamaydigan baholarda qabul qilinishi tez-tez uchrab turadi.

Bunday sharoitda xo'jaliklar nima ko'proq foyda keltirsa, o'sha mahsulotni ishlab chiqarishiga majbur bo'lishmoqda. SHuning uchun sut, go'sht, sabzavot va boshqa shu kabi mahsulotlar ishlab chiqarishi kamayib ketishi, qoramollar bosh sonining qisqarishi, ekin maydonlari tarkibi-ning o'zgarishi va boshqa salbiy jarayonlar boshlandi. SHuningdek, foyda darajasi ham bevosita yo'l harajatlariga bog'liq bo'lmoqda.

Ma'lumki, viloyat transport tizimining rivojlanish ko'rsatkichi «o'rta»cha xarakterga ega. Namangan viloyatida mavjud temir yo'llarning zichligi va ularning faoliyati hozirgi kunda qoniqarli darajada emas. Bu esa qishloq xo'jalik mahsulotlarini viloyat markazlarida joylashgan qayta ishlash korxonalariga yetkazib berishda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Namangan viloyati avtomobil yo'llari Farg'ona mintaqasi relesiga mos ravishda halqasimon shakllangan. Biroq, viloyat ichidagi tumanlararo va xo'jaliklararo avtomobil yo'llarining ahvoli qoniqarli darajada emas. To'raqo'rg'on-Kosonsoy, Namangan-Uychi yo'nalishidagi avtomobil yo'llarini hamda Mingbuloq va Pop tumanlaridagi transport tizimining holatini yaxshi, deb bo'lmaydi. Bunday holat, albatta, qishloq xo'jalik korxonalarining yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etmay qolmaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining bozor munosabatlarida muvaf-faqiyatli ishtirokini ta'minlash ularning raqobatbardoshligi bilan bog'liq. O'z navbatida, raqobatbardoshlikning moddiy asosi ishlab chiqarish uchun resurslar va xizmatlar bilan ta'minlanganlikdir. SHu jihatdan, mintaqa (viloyat) infratuzilma sohasi korxonalarini tomonidan tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan yaxshi natija beradigan faoliyatini ta'minlash uchun xizmatlar ko'rsatadilar. Kredit muassasalari, mashina-traktor parklari (MTP), lizing kompaniyalari va boshqa birlashmalar asosiy tovar ishlab chiqaruvchilarga yordamchi xizmat ko'rsatuvchi orqa bo'g'in hisoblanadi. Sanab o'tilgan har bir tuzilmalar o'ziga xos tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lib, ularning faoliyati natijalari ishlab chiqarishining ma'lum bir ob'ektiv shart-sharoitlariga ega bo'lgan tumanlar bo'yicha bir xil emas.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnik ta'minoti darajasining pasayishi, asosiy texnika turlarining o'z xizmat muddatini o'tab bo'lganligi, ma'naviy va jismoniy eskirganligi, yangi texnika narxining to'xtovsiz o'sib borishi hamda qishloq xo'jaligi ekinlari strukturasi o'zgarishi hisobiga bir qator ixtisoslashgan texnika turlari ortiqcha bo'lib qolgan bo'lsa, boshqa bir qator turdagi mexanizmlar yetishmasligi ham mavjud.

Ayni vaqtda fermer xo'jaliklarining kreditga bo'lgan ehtiyoji to'la qondirilmoqda deb bo'lmaydi. Paxtachilik va g'allachilikning kreditga ehtiyoji to'la qondirilayotgan bo'lsa ham, qishloq xo'jaligining boshqa sohalariga ko'proq kredit ajratish zarur ekanligi ham ko'rinib turibdi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirish va kredit berishni o'ta markazlashtirishdan asta-sekin voz kechish lozim. Davlat buyurtmalari bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari asosan yetishtirilayotgan paxta va g'alla uchun davlat buyurtmalari asosida harajatlarning ma'lum foizini bo'nak bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda. Harajatlarning qolgan qismi xo'jaliklarning aylanma mablag'i hisobiga qoplanishi kerak bo'ladi. Xo'jaliklarning aksariyati zarar bilan ishlayotganligi uchun o'z aylanma mablag'lariga ega emas. Bu esa ularning moddiy-texnik bazasini hamda agrotexnik tadbirlar-ni o'z vaqtida o'tkazish imkoniyatini chegaralab qo'ymoqda.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi infratuzilmasi Namangan viloyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi o'sishining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yoki erishilgan ishlab chiqarish darajasini barqarorlashtirishga ko'mak bermoqda, deb hisoblash mumkin. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlari yoki iqtisodiy salohiyati birinchi navbatda mavjud yer resurslari, ularning holati va sifati bilan belgilanayotganligini ham inkor etish mumkin emas. Biroq, ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashda har bir xo'jalikka to'g'ri keladigan haydaladigan yer va mahsulot miqdori hamda bir biri bilan miqdoriy nisbat hisobida qaraladi. Agar haydala-digan yer hajmi ishlab chiqarilgan mahsulotdan ortiq bo'lsa, ushbu xo'jalik-ning ishlab chiqarish salohiyati «yuqori», yer hajmining kamligi salohiyat-ning «pastligi» va teng nisbatda esa u «o'rtacha» baholanadi. SHuningdek, chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar o'z imkoniyatlarini to'la ishga solishlari uchun qoramol bosh soni bilan ular ixtiyoridagi yer maydonlari, ayniqsa, yem-xashak ekinlari maydoni o'rtasida mutanosiblik bo'lishi lozim.

Yer maydonlari nisbatan qo'proq va bu maydonlarni kengaytirish imkoniyati yuqori Pop va Mingbuloq tumanlarida yakka mulkchilik asosida xo'jalik sub'ektlarini, bunday imkoniyatlar mavjud bo'lmagan boshqa tumanlarda esa sherikchilik mulkka asoslanuvchi birlashmalar yoki jamiyat-lar ko'rinishidagi xo'jalik sub'ektlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Barcha xo'jaliklar mulk shaklidan qat'iy nazar yuqori darajada iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lishlari

lozim. Barcha xo'jaliklarga yuqori darajadagi iqtisodiy mustaqillik berilishi ularning xo'jalik yuritish-ning bozor sharoitlariga talofatsiz o'tishi uchun real imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Biroq, ular raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishmasa va o'zlari-ning ishlab chiqarish salohiyati darajasini yanada yuqoriga ko'tarishmasa, xo'jaliklar uchun faqat o'z kuchlariga suyanib bozorga chiqishning oqibati yomon bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarishda iqtisodiy mustaqillikni rivojlantirish qishloq xo'jaligi bilan munosabatlarga kiruvchi sanoat, bank, transport va boshqa korxonalar hamda tashkilotlarni rivojlantirishga, ularning qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlab turishdan bevosita manfaatdorligini ta'minlab turishga ham bog'liq.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishga oid xizmatlar yirik qishloq xo'jaligi korxonalarining tegishli bo'linmalari yoki tuman miqyosidagi ixtisoslashgan tuzilmalari tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Tuman miqyosidagi ixtisoslashgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar qishloq xo'jaligi sub'ektlarning mablag'larini jalb etgan holda ochiq aktsiyadorlik jamiyat-lari ko'rinishida mavjud bo'lsada, ularning manfaatlari o'zaro bog'liqligi vujudga kelmadi. Moddiy-texnika resurslari yetishmasligi sharoitida xizmatlar kerakli muddatlarda ko'rsatilmaganligi, sifati pastligi, xizmat uchun haq o'ta yuqori o'rnatilishi odatiy tus olgan. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining asosiy qismi uchun xo'jalik yuritish sharoit-larini qiyinlashtirdi, ayrim hollarda ekin maydonlari, ayniqsa, takroriy ekin maydonlari, qoramollar bosh soni kamaydi, hosildorlikni qoniqarli darajasiga erishilmadi.

Qishloq xo'jaligidagi daromad manbalarini oshirish bo'yicha o'tkaziladigan islohotlar jarayonida talab va taklifni davlat tomonidan faol tartibga solib turishi zarur. Butun iqtisodiyotdagi singari agrar sohada ham ma'muriy buyruqbozlik tizimidan yangi bozor tizimiga o'tish birdaniga sodir bo'lmaydi, balki xo'jalik yuritishning yangi shakllari qaror topishi ancha uzoq vaqt davom etadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida daromad manbalarini oshirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoq-da va quyidagilar:

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarishi va bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- xo'jalik yuritish shakllarini maqsadga muvofiq ravishda qo'llash, ya'ni, fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirish;
- mablag' bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- bozor sharoitida ishlab chiqarishini davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy usullaridan iqtisodiy usullarga o'tish, davlat buyurt-malarini asta-sekin qisqartirish bilan bog'liq.

Mazkur jarayonlar doimo ham izchillik bilan amalga oshirilayotgan, ijobiy natijalari ayrim hollarda ko'zga tashlanayotgan bo'lsa ham ularning muhimligi shubhasizdir.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ko'p ukladli agrar iqtisodiyot barpo etilib, turli xil mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat yurita boshlashi, ishlab chiqarish jarayonida raqobatning vujudga kelishiga asos yaratadi va bu o'z navbatida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini yuksalishiga olib keladi. SHuningdek, hozirgi kunda turli mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa tarmoq korxonalari va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari bilan ishlab chiqarish aloqalari va xo'jalik munosabatlari yangicha asosda sezilarli darajada kengayishi ishlab chiqarish jarayonlariga, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan bo'ladigan iqtisodiy-xo'jalik munosabatlar ham katta ta'sir o'tkazadi.

Respublikamiz agrosanoat majmuida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish eng avvalo, majmua tarmoqlarida bozor munosabatlarini joriy etish bilan bog'liq. SHu jihatdan qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida saqlanib, rivoj topayotgan turli xo'jalik yuritish shaklidagi korxonalarda mehnatkashlar mulkka va ishlab chiqarishning pirovard natijalariga ega sifatida faoliyat yuritishni, moddiy manfaatdorlik mexanizmi orqali ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi yuksalishiga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish miqdorini belgilashda, mahsulotlarni qaysi bozorlarda va kimga sotish masalasini, narx shakllanishi va daromadlaridan foydalanishni mustaqil hal qilishni taqozo etadi. Ammo, tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, rivojlangan davlatlar tajribalari tovar yetishtiruvchi

iqtisodiy mustaqilligi masalasining nisbiy ekanligidan dalolat beradi. CHunki, bozor iqtisodiyoti amal qiladigan sharoitda har bir tovar ishlab chiqaruvchi bozorda shakllangan talab va taklif muvozanati, raqobat kurashi qonuniyatlari va bozorning boshqa talablariga bo'ysunishga majbur bo'ladi va oladigan daromadi ushbu omillar ta'sirida shakllanadi. Bozordagi talab darajasidan ortiq miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish narx tushib ketishiga olib kelgan taqdirda ishlab chiqaruvchidan yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirishni, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo'llarini qidirishni talab etadi. Ushbu vazifalarining o'z vaqtida hal etilishi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkon beradi.

SHunday qilib yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bozor sharoitida tovar ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqaruvchi tomonidan bozordagi talab darajasini qanchalik o'rganib uning o'zgarishini oldindan bilgan xolda, ushbu talabga moslashish uchun amalga oshirilgan tadbirlari natijasiga ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'min eta oladi.

3.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi

Investitsiyalar har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda amalga oshiriladi. CHunki ular davlatni, tarmoq, korxonalar va nihoyat, aholining iqtisodiy negizini mustahkamlashga sarflanadi. Erkin bozor iqtisodi bosqichma-bosqich shakllantirilayotgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar sarflanishi ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. CHunki tarmoqni ustivor shaklda rivojlantirish uchun uning moddiy – texnika bazasini mustahkam ravishda barpo etish zarur. Buning uchun uni zamonaviy bino-inshootlar, barcha turdagi zarur texnikalar, qishloq xo'jalik mexanizmlari, ichki irrigatsiya va melioratsiya inshootlari, serunum, tezpishar navlar, zotli, mahsuldor hayvonlar hamda aylanma vositalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash lozim.

Hozirgi davrda investitsion mablag'lar yangi, samarali texnologiyaga hamda intellektual mulkni barpo etishga ham sarflanishi maqsadga muvofiqdir. Bu muammoning to'g'ri, samarali hal etilishi ma'lum miqdordagi investitsiyalar sarflanishini ob'ektiv ravishda talab etadi. Demak, investitsiya mablag'lari tarmoqda doimiy va o'zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo o'tish va ularni rivojlantirish hamda yuksaltirish uchun sarflanadi. U uzoq hamda qisqa muddatlarga sarflanishi mumkin. Agarda qishloq xo'jaligining asosiy vositalarini sotib olishga, qurishga hamda ularni kapital ta'mirlashga sarflansa, unda bu sarflar uzoq muddatga mo'jallangandir. Ularni asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar deb atashadi. SHu bilan birgalikda investitsiyalar qishloq xo'jaligining aylanma vositalariga ham sarflanadi. Ular qisqa muddatga sarflangan hisoblanadi. Demak, investitsiyalar natijasida qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari barpo etilib, ularning ishga yaroqliligi tubdan yaxshilanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag'lar investitsiyalar deb ataladi. Ular qishloq xo'jaligi (korxonalar)ning moddiy – texnika bazasini mustahkamlab, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalashtirish natijasida xarajatlarni kamaytirib, yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'payishi va sifati yaxshilanishini, olinadigan daromad (foyda) so'mmasi oshirishni ta'minlaydi. Bu investitsiyalarni amalga oshirishning tub maqsadidir.

SHularni e'tiborga olgan holda respublikada barqaror investitsion siyosat ishlab chiqilgan. U mamlakatda «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998 y) qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Investitsiyalar maqsad hamda vazifalariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

- kapital investitsiyalar;
- innovatsion investitsiyalar;
- ijtimoiy investitsiyalar.

Asosiy fondlarni barpo etishga va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalar **kapital investitsiyalar**, deb ataladi.

Texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratish va o'zlashtirishga sarflangan investitsiyalar **innovatsiya investitsiyalaridir**.

Inson salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lar **ijtimoiy investitsiyalar**, deb ataladi.

Ular real hamda moliyaviy invaestitsiyalarga ham bo'linadi. Moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga sarflangan mablag'lar **real investitsiyalarni** tashkil etadi.

Qimmatli qog'ozlarni (aktsiya, obligatsiya, veksel, sertifikat) shakllantirishga sarflangan mablag'lar esa **moliyaviy investitsiyalar** hisoblanadi. Real investitsiyalarni kapital qo'yilmalar, deb ham atash mumkin. Kapital qo'yilmalar yalpi va sof kapital qo'yilmalariga bo'linadi. Real investitsiyalarning umumiy so'mmasi yalpi kapital qo'yilmalarini tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo'yilmalardir. Sof kapital qo'yilma yalpi kapital qo'yilma so'masiga teng yoki kam bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi, jumladan, korxonalar miqyosida yalpi kapital qo'yilmani sof kapital qo'yilmaga aylantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya'ni ishga tushirilishini ta'minlash zarur.

Milliy hisoblar tizimida asosiy kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositlariga sarflangan mablag'lar real investitsiyalar deb hisobga olinadi.

Lekin, Respublika qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini sust sur'atlar bilan rivojlantirilayotganligi moliyaviy investitsiyalar qo'lamini kengayishini talab darajasida ta'minlamayapti. Jumladan, jamoa, shirkat, fermer xo'jaliklarida qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiya, sertifikat, veksellar chiqarilib, sotilayotgani yo'q. Kelajakda bu muhim masalani hal etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Davlatning iqtisodiy siyosatida qishloq xo'jalik korxonalarida ham qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish tadbirlari ishlab chiqilishi va ular amaliyotga tatbiq etilishi ko'rsatilishi lozim.

Bozor iqtisodi sharoitida investitsion siyosatni shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- tender asosida raqobatbardosh loyihalarni tanlashga. Bu qishloq xo'jaligida investitsion loyihalar bozori barpo etilishini ta'minlaydi;

- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligiga. Qishloq xo'jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarining xususiyatlari real hisobga olingan holda iqtisodiy-ijtimoiy natijalari aniqlangan bo'lishi zarur. Chunki, aksariyat hollarda loyihada belgilangan mablag'lar ko'zda tutilgan tadbirlarni bajarish uchun yetmaydi, oqibatda ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Bu hol investitsion loyihalar uzoq muddatga cho'zilishiga olib keladi;

- chet el investorlarini va ularning investitsiyalarini qishloq xo'jaligiga jalb etishga. Buning uchun qishloq xo'jaligida barcha ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan shaxsiy va xususiy mulkchilikni rivojlantirish lozim va boshqalar.

Barcha omillarni e'tiborga olgan holda sarflanadigan investitsiyalar qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy – texnika bazasini barpo etadi. Qishloq xo'jaligi zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, bino-inshootlar bilan ta'minlanadi. Unda bog'zor, uzumzorlar barpo etiladi. Zotli, sermahsul chorva hayvonlari yaratiladi.

Ular yangi ish joylari barpo etilishini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan tadbirkorlarning bilimlarini, malakalarini yuksaltiradi. Bozor munosabatlarini shakllantiradi. Ularning uyg'unlashishi natijasida tarmoqda yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'paytirilib, raqobatbardoshligi oshadi. Bu, o'z navbatida aholini, qayta ishlash tarmoqlarini va nihoyat, davlatning talabi qondirilishini ta'minlaydi. Fuqarolarning turmush darajasini yuksaltiradi. Bularning hammasi investitsiyalarning iqtisodiy – ijtimoiy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Kapital qo'yilmalarning xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati ulkan. Birinchidan, kapital qo'yilmalar – jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Kapital qo'yimlardagi o'zgarishlar jami talabga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi, shuningdek aholini bandligi va yalpi milliy daromad (YaMD) hajmini ham o'zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kapital qo'yimlar korxonaning asosiy fondlari jamg'arilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqarish kuchlarini kengaytirishga sarf qilingan pul mablag'lari boshlang'ich bosqichda korxonaning faoliyati natijalariga ta'sir etmasligi mumkin, lekin kelajakda iqtisodiy o'sish uchun zarur bazani yaratadi.

Uchinchidan, kapital qo'yimlarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o'sishiga olib keladi, natijada YaMD qisqaradi. Misol uchun, tugatilmagan qurilishning ko'payishi, moddiy resurslar oshishi, to'lanadigan ish haqining ko'payishi hamda ishlab chiqarishning qisqarishi shular jumlasidandir. Xuddi shunday tarzda noritmik holda yetkazib berilgan vositalar me'yordan yuqori bo'lib, korxonaning zahiralari ham ta'sir ko'rsatadi. Ular sarflanayotgan kapital qo'yimlarning qiymati o'sishiga hamda samaradorligiga ta'sir etadi.

Kapital qo'yimlarning miqdori, dinamikasi va samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- kapital qo'yilma amalga oshirilayotgan loyihaga;
- mamlakatdagi va korxonaning faoliyatidagi iqtisodiy o'zgarishga;
- davlatning soliq siyosati va banklarning foiz stavkasiga;
- tashqi savdodagi iqtisodiy holatga;
- milliy valyutaning ichki va tashqi kursiga;
- mamlakatning siyosiy hayotidagi barqarorlikka.

Investitsiyalar (kapital qo'yimlar) qishloq xo'jaligining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Chunki ular evaziga tarmoqning moddiy – texnika bazasi mustahkamlanadi. Ulardan to'liq va samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ko'payib sifati yaxshilanadi. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab yanada yaxshiroq qondirilishini ta'minlaydi. SHu bilan birgalikda sof foyda so'mmasi ko'payadi. Natijada qishloq xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati tug'iladi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yuksaladi. Bular investitsiyalar kapital qo'yimlarning ijtimoiy hamda iqtisodiy samaradorligi mavjudligidan yaqqol dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi tarmoqda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, qayta ta'mirlash, qurish, innovatsion hamda ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan tashkil topadi.

Investitsiyalarning maqsadi, vazifalari, manbalari hamda yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda 1–chizmadagidek turkumlashtirish mumkin.

Barcha investitsiyalar (kapital qo'yimlar) quyidagi yirik ikkita manbadan shakllantirilib amalga oshiriladi:

- korxonaning o'z mablag'laridan;
- chetdan jalb qilingan mablag'lardan.

Korxonaning o'z mablag'lariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning sof foydasidan ajratilayotgan mablag'lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag'lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar;
- ularni ijaraga berishdan tushgan mablag'lar;
- qishloq xo'jalik korxonalari qiymatli qog'ozlar chiqarib sotish, boshqalarnikini sotib olishi natijasida olinayotgan dividendlardan ajratilayotgan mablag'lar.

Yuqori rentabelli korxonalar ishlab chiqarish vositalarini yangilash maqsadida kapital qo'yimlarni amalga oshirishda ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan tashqari, qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun kapital qo'yilmalar manbai chorva hayvonlarini sotishdan tushgan mablag'lar, ustav fondini ko'paytirish uchun qilingan ajratmalar ham hisoblanadi.

CHetdan jalb qilingan mablag'lar esa:

- qishloq xo'jaligi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag'lar;
- turli xil qarzlilar, shu jumladan, tijorat banklaridan olinadigan kreditlar;
- xo'jalik a'zolarining bo'sh yotgan mablag'larini jalb etish;
- xorijiy davlat korxonalarini hamda shaxsiy korxonalar va fuqarolarning mablag'lari;
- xayriya fondlaridan, homiyilar ajratayotgan mablag'lari va boshqalar.

CHetdan jalb qilingan mablag'lar orasida bank kreditlari alohida o'rin tutadi. Ular ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan qat'i nazar, alohida korxonalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda kapital qo'yilmalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bank kreditlari korxonalar o'z mablag'larini kapital qo'yilma uchun kerakli miqdorini yig'masdan turib investitsiya jarayonini tezlashtiradi. Kreditlar kapital qo'yilma manbai sifatida nafaqat kapital qurilishda, balki yangi texnikani joriy qilishda ham ishlatiladi. Kapital qo'yilmalarning asosiy vazifasi – tarmoq mahsulotini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligining o'sish sur'atlari tezlashtirilishini ta'minlashdir.

Kapital – korxonalar moliyaviy natijalarining bir qismi bo'lib, aylanma fondlarga qo'yilib, daromad keltiradi. Kapitalning aylanma fondlarga qo'yilishi to'g'ri o'tish va investitsiyalar orqali amalga oshiriladi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, investitsiya qilishda korxonalar o'z mablag'laridan imkon boricha foydalanishi ikkita ustunlikka olib keladi: korxonada tashqi to'lovlar mavjud bo'lmaydi (olingan kreditlar bo'yicha foiz, aksiyalar bo'yicha dividendlar, ijara haqi va hokazo), shuningdek, korxonani boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Ayni paytda xo'jaliklarga chetdan jalb qilinadigan mablag'larning manbalaridan biri–bu, xo'jalik a'zolarining vaqtincha bo'sh yotgan mablag'larini jalb etish hisoblanadi. Bunday investitsiyani amalga oshirish uchun korxonalar o'z ichida qisqa muddatli obligatsiyalarni, veksellarni chiqarib, ularni a'zolariga ishonchli tarzda tarqatishi (sotishi), yoki huquqiy kuchga ega bo'lgan ishonchli dalolatnomalarni ham berishi mumkin. Xo'jalik a'zolari esa muomalaga berilgan mablag'larini ma'lum muddat o'tgandan so'ng belgilangan foizi bilan qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu turdagi kapital qo'yish qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun hozirgi davrda yaxshi samara bermaydi. CHunki xo'jaliklarda hozircha qiymatli qog'ozlarni chiqarish imkoniyatlari cheklangan, kelajakda shu masalalarga alohida e'tibor berish kerak.

CHetdan jalb etilayotgan investitsiyalar chet davlatlarning, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

CHet ellik investorlar asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad respublika hududida chet el investitsiyalari deb hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- respublika qishloq xo'jaligidagi yuridik hamda jismoniy shaxslarning ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;
- tarmoqda chet ellik investorgarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, bank, sug'urta va boshqa korxonalarini barpo ti shva rivojlantirish;
- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz mablag'larini sotib olish;
- intellektual mulkka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, firma nomlari va nou-xaularga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish va boshqalar.

Ularni chet davlatlar yoki bu davlatlarning quyidagi hududiy organlari amalga oshiradilar:

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, shirkatlar, uyushma va tashkilotlar;
- chet el fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar va boshqalar.

Hozirgi davrda mamlakat qishloq xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarishini rivojlantirishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot bankilarining respublikadagi bo'limlari hamda AQSH, Germaniya, Isroil, Gollandiya, Frantsiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash bilan shug'ullanmoqda. Lekin ularning investitsiyalari talabni qondiradigan darajada emas. SHuning uchun bu masalaga, ya'ni chet el investitsiyalarini jalb etish muammosiga kelajakda alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

CHet el investorlari investitsiyalari O'zbekiston Respublikasining «CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998 y) qonun talablari asosida amalga oshiriladi.

Hamon qishloq xo'jaligiga investitsiyalar kam sarflanishiga qaramay, ularning salmog'i tabora kamayib bormoqda. Bu o'z navbatida tarmoqda ko'proq miqdorda yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini rivojlantirish, yangi texnika hamda texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday holni oldini olish uchun tarmoqdagi mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishni, ayniqsa, xususiy-mulkchilikni hamda investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish talab etiladi.

Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida joylardada qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirish mexanizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizimini takomillashtirishda asosiy e'tibor xududning qishloq xo'jalik xom ashyo va ishchi kuchi resurslarini hozirgi zamon bozor talablaridan kelib chiqib tashkil etish va rivojlantirishni taqozo etadi. Qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirishda tadbirkorlarning afzalliklaridan oqilona foydalanib zamonoviy kichik korxonalar tashkil etish, soliq tizimini yengillashtirish, xorijiy sarmoyalar, mini kredit olish afzalliklaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Joylarda qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirish muammolarini hal qilishda har bir tarmoq tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda, ularni dastlabki ishlov beruvchi va yetkazish bosqichida ishtirok etuvchi tuzilmalar faoliyatini o'zaro tizimli tarzda ishlash mexanizimini takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Sanoatda ichki va tarmuqlararo kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni katta ahamiyat kasb etadi. SHu bois istiqbolda meva-sabzavot mahsulotlari qayta ishlash tarmoqlarida ichki va tarmoqlarora kooperatsiya imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanish, unga kichik biznesni jalb etish katta samara beradi.

Viloyatda qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirish aholi ehtiyojlarining qondirilishida doimiy, cheksiz qayta ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat. Ularni muvofiqlashtirish mexanizimini takomillashtirishda loyihalarni tender asosida g'oliblarni aniqlash lozim bo'ladi. Qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirish malakali ishchi mutaxassislar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirishni taqozo qiladi.

Mintaqa qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirish ko'p jihatdan uning ichki tarkibiga kiruvchi tuzilmalar samaradorligiga bog'liq. Mintaqaning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uning dasturi doirasida amalga oshiriladi. Mazkur dastur qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirishning rivojlanishini, tartibga solinishi, qaysi vosita va rag'batlardan foydalanishi uning istiqbol rivojlanishini belgilab beradi, ijtimoiy va ekologik muammolarning bartaraf etilishini ta'minlaydi.

Namangan viloyati qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirishning rivojlanishida ham muammolar mavjud bo'lib, ular yechimining ayrim yo'nalishlari quyidagilardan iborat: qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirish tarkibini takomillashtirish; eskirgan uskuna va texnologiyalarini yangilash; ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsientini oshirishni taqozo etadi. SHu bilan birga qishloq xo'jalik

korxonalarini daromad manbalarini oshirish bilan bog'liq masalalar qatoriga Namangan viloyati sharoitida lokal va xudud masshtabida kechayotgan ekologik muammolarni ham inobatga olib, ularni yechish yo'llarini asoslash zarur bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini daromad manbalarini oshirishning oqilona tarkibini shakllantirish, material va energiya sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, yangi texnologiya kiritish orqali qayta qurollantirish ham dolzarb masaladir.

Bu borada davlatimiz rahbari I.Karimovning tashabusi bilan 2006 yil 24 avgustda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalarning xalqaro ixtisoslashtirilgan ko'rgazma-savdosini o'tkazishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim omil bo'layotir. "O'zbekspomarkaz"da an'anaviy ko'rgazma-savdosida mamlakatimiz va xorij kompaniyalari o'zlarining minitexnologiyalar va ixcham uskunalarini taklif etmoqdalar. Ular orasida fermer va tadbirkorlarga xarid qilingan zamonaviy uskunalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda servis xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar ham bor. O'zbekiston bozoriga zamonaviy xorijiy jihozlarni yetkazib berishga ixtisoslashgan "TEXNO FOOD SERVIS" markazi shulardan biri hisoblanadi.

1 va 11 Xalqaro «O'zbekiston Agromintex Ekspo-2006» va «Ekspo-2007» savdo-ko'rgazmasida dunyoning 32 mamlakatidan 400 dan ortiq firma va kompaniyalar o'z ixcham uskuna va minitexnologiyalari bilan ishtirok etishdi. Ko'rgazmaga respublikamizning barcha mintaqalidan minglab fermer, agrofirma va kichik korxonalar rahbarlari tashrif buyurishdi. Xaridlarni moliyalashning eng foydali shartlari xususida ko'rgazmaning o'zida ularga O'zbekiston tijorat banklari, lizing va sug'urta kompaniyalari mutaxassislari yordomga kelishdi. Bu to'g'rida Prezidentimiz I.A.Karimov "...Fermer texnikaga xaridor bo'lish asnosida uning eng zamonaviysini, o'zini har jihatdan oqlaydiganini tanlashi lozim. SHuningdek, bunday mini texnologiyalar va ixcham uskunalarini xarid qilishda fermer nafaqat o'z hisob raqamidagi mablag'lardan, balki banklar kreditlaridan hamda lizing usulidan samarali foydalanmog'i darkor"- deb maslahat bergan edilar. 2007 yilgi ko'rgazmada umumiy qiymati 13813 million so'mni tashkil etgan 13 ta loyixani moliyalashtirish ishlari amalga oshirildi.³

Xalqaro yarmaka – ko'rgazmasi doimiy asosda ishlaydigan bo'ldi. Endilikda dehqon va fermerlarning uzoq xorijga bormasdan turib kerakli bo'lgan mashina va asbob-uskunalarini xarid qilish, mutaxassislar yordamida o'z qishloqlarida o'rnatish, ishga solib yuborish va tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari tug'ildi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar fermerlikni rivojlantirish, sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilayotir.

3.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizning 2008 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. «Bunday ta'sir, avvalambor, umuman dunyo bozoridagi talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda eksportga yo'naltirilgan etakchi tarmoqlar va ular bilan bog'liq turdosh korxonalar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, butun iqtisodiyotimizning mutanosib va samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ko'zda tutilgan loyihalarni amalga oshirish, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish yo'lida ko'plab muammolarni tug'dirmoqda. Muxtasar aytganda, 2008 yil biz uchun, birinchi navbatda mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'ldi. Lekin, yuzaga kelgan barcha muammo va qiyinchiliklarga qaramay, xalqimizning fidokorona mehnati va amalga

³ «Xalq so'zi» gazetasi 18 may 2007 yil.

oshirilgan tadbirlar evaziga 2008 yilda iqtisodiyotimizning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishdik»⁴.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ham muhim ijobiy natijalar qo'lga kiritilib, o'tgan yilga nisbatan 5 foiz o'sishga erishildi. Murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan, ilk bor 7,3 million tonnadan ziyod don, shu jumladan 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi. SHuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishda o'sish sur'atlarini ko'rish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarining ishlab chiqarilishi

Mahsulot turi	O'lchov birligi	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2009 yilda 2008 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Sabzavotlar	ming tonna	4669,9	5217,4	5704,7	109,3
Kartoshka	ming tonna	1188,1	1398,7	1524,5	109,0
Poliz mahsulotlari	ming tonna	840,0	981,2	1071,0	109,2
Mevalar	ming tonna	1269,1	1402,8	1542,9	110,0
Uzum	ming tonna	880,3	791,0	899,6	113,7
Go'sht	ming tonna	1208,6	1287,9	1367,7	106,2
Sut	ming tonna	5097,4	5426,3	5779,0	106,5
Tuxum	mln. dona	2214,7	2429,0	2715,9	111,8

Jadvaldan ko'rinadiki, 2009 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida kartoshka (109,0%), poliz mahsulotlari (109,2%), sabzavotlar (109,3%) yetishtirish nisbatan ahamiyatli darajada o'sgan bo'lsa, faqat uzum o'tgan yilga taqqoslaganda 113,7% darajasida yetishtirilgan.

Umuman olganda, yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2009 yilning jahon mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lganligiga qaramay mamlakatimizda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori darajasiga erishildi.

Umuman olganda, yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2008 yilning jahon mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lganligiga qaramay mamlakatimizda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori darajasiga erishildi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar orqali erishilgan natijalari qishloq xo'jaligi tarmoqlari ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish printsiplial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan er maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirilganligi, dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy

⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 15-b.

fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda etakchi bo'g'inga – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Fermer xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarning uzoq davrli tajribasida o'zining samaradorligi, raqobatbardoshligi, bozor kon'yunkturasiga tez moslasha olishi kabi xususiyatlarini namoyon eta oldi. SHunga ko'ra, O'zbekistonda ham fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilib, ular faoliyatining zarur iqtisodiy shart-sharoitlari yaratildi, me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fermer xo'jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. Fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi bosqichma-bosqich va izchillik asosida olib borildi.

Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008 yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini etishtirish uchun 1 trillion so'm, jumladan, paxta tayyorlashga – 800 milliard so'm, g'alla etishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009 yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so'm yo'naltiriladi. Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan Fond hisobidan ushbu maqsadlar uchun o'tgan yili 43 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan bo'lsa, joriy yilda 58 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ana shunday e'tibor va amaliy yordam tufayli 2008 yilda fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishdagi ulushi sezilarli darajada oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi F-3077-son «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralari ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi doirasida ko'rilgan tashkiliy choralar va amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2008 yilning 1 oktyabriga qadar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 219976 ta fermer xo'jaligi yer uchastkalari maqbullashtirilib, ularning umumiy soni 105033 tani tashkil qildi va fermer xo'jaliklariga jami 5 mln 860,1 ming gektar yer maydoni biriktirib berildi yoki bunda bitta fermer xo'jaligiga o'rta hisobda ilgari 27,0 gektar o'rniga amalga 56,0 gektar yer maydoni to'g'ri kelmoqda. SHundan paxtachilik va g'allachilik yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari soni 47,6 mingta bo'lib, ularga 4 mln. 390,1 ming gektar yoki bitta fermer xo'jaligiga o'rtacha 92,0 gektar yer maydoni uzoq muddatga ijaraga berildi.

O'tgan yilda amalga oshirilgan bu kabi o'zgarish va islohotlar joriy va kelgusi yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligining oshishi hamda uning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga ishonchli zamin yaratdi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ko'p ukladli agrar iqtisodiyot barpo etilib, turli xil mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat yurita boshlashi, ishlab chiqarish jarayonida raqobatning vujudga kelishiga asos yaratadi va bu o'z navbatida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini yuksalishiga olib keladi. SHuningdek, hozirgi kunda turli mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa tarmoq korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan ishlab chiqarish aloqalari va xo'jalik munosabatlari yangicha asosda sezilarli darajada kengayishi ishlab chiqarish jarayonlariga, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan bo'ladigan iqtisodiy-xo'jalik munosabatlar ham katta ta'sir o'tkazadi.

Respublikamiz agrosanoat majmuida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish eng avvalo, majmua tarmoqlarida bozor munosabatlarini joriy etish bilan bog'liq. SHu jihatdan qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida saqlanib, rivoj topayotgan turli xo'jalik yuritish shaklidagi korxonalarda mehnatkashlar mulkka va ishlab chiqarishning pirovard natijalariga ega sifatida faoliyat yuritishni, moddiy manfaatdorlik mexanizmi orqali ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi yuksalishiga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish miqdorini belgilashda, mahsulotlarni qaysi bozorlarda va kimga sotish

masalasini, narx shakllanishi va daromadlaridan foydalanishni mustaqil hal qilishni taqozo etadi. Ammo, tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, rivojlangan davlatlar tajribalari tovar yetishtiruvchi iqtisodiy mustaqilligi masalasining nisbiy ekanligidan dalolat beradi. Chunki, bozor iqtisodiyoti amal qiladigan sharoitda har bir tovar ishlab chiqaruvchi bozorda shakllangan talab va taklif muvozanati, raqobat kurashi qonuniyatlari va bozorning boshqa talablariga bo'ysunishga majbur bo'ladi va oladigan daromadi ushbu omillar ta'sirida shakllanadi. Bozordagi talab darajasidan ortiq miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish narx tushib ketishiga olib kelgan taqdirda ishlab chiqaruvchidan yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirishni, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo'llarini qidirishni talab etadi. Ushbu vazifalarining o'z vaqtida hal etilishi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkon beradi.

SHunday qilib yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bozor sharoitida tovar ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqaruvchi tomonidan bozordagi talab darajasini qanchalik o'rganib uning o'zgarishini oldindan bilgan xolda, ushbu talabga moslashish uchun amalga oshirilgan tadbirlari natijasigina ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'min etadi.

Ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorlik darajasi ortishi katta ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, ishlab chiqarish faoliyatining foydali natijasi dehqonlar moddiy manfaatdorligining o'sishini va ortiqcha sarf-xarajatlarning tejallishini, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy zarur mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirishni ta'minlaydi. Bu esa, ishlab chiqarish natijalari bilan dehqonlar turmush darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha jabxalarini qamrab olgan xolda kishilarning mehnati natijalarini o'zida aks ettiradi va sof daromad ko'rinishida shakllanib, ishlab chiqarishni kengaytirish, mehnatkashlarning moddiy faravonligini oshirish va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy yuksalishi yo'lida mustaxkam moddiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishni, yuqori samara beradigan yangi mashinalar va asbob-uskunalarni, agrotexnika va zootexnika usullarini, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni yangi metodlarini joriy etishni taqozo qiladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishning yangi usul va metodlari iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi: bir gektar yer hisobiga va bir bosh mol hisobiga olinadigan yuqori sifatli mahsulot miqdori; mehnat unumdorligi; mahsulot tannarxi; sof daromad va rentabellik; kapital mablag'lar va ularning o'z o'rnini koplashi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan yangi usullar va metodlarga baho berishda quyidagi tashkiliy-xo'jalik talablari ham hisobga olinadi: mehnat sharoitining yaxshilanishi va osonlashuvi; mavsumiylikning kamayishi hamda ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalaridan bir tekisda foydalanish; mahsulotning kelib tushish muddatlari; mahsulotning davlat buyurtmasi rejalarining bajarilishi; milliy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kamyob mahsulotlari ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish; ilgari ekinlar sifatidagi ahamiyati; texnologiyaning, ishlab chiqarishni tashkil etishning murakkabligi va hokozolar.

SHunday qilib, qishloq xo'jaligi tarmoqlari ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari ishlab chiqarishning yangi usul va metodlariga tashkiliy - iqtisodiy baho berish, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, boshqarish va boshqa metodlarini tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, qishloqdagi mulkdor va tadbirkorlarning ahamiyatini oshirish, fermerlar harakatini qo'llab-quvvatlash – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturining asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

«SHu bilan birga, - deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz, - o'tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo'jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda. Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan er maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda. Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi, o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda»⁵.

SHu kabi asoslardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda er maydonlarini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning er maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi. Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan er maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilik tarmoqlarida o'rtacha 37 gektardan 93,7 gektargacha ko'paydi yoki 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bu ko'rsatkich sabzavotchilikda – 10 gektardan 24,7 gektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektargacha ko'paydi.

2008 yilda asosiy e'tibor barcha toifa xo'jaliklarida chorva mol bosh soni va uning mahsuldorligini oshirishga qaratildi. Natijada jami qoramollar soni 8024,8 ming boshga yetib, shundan sigirlar soni 3327,0 ming boshni, qo'y va echkilar 13559,4 ming boshni, parrandalar 29498,4 ming boshni tashkil etdi. Tirik vaznda 1287,9 ming tonna (106,5%) go'sht, 5426,3 ming tonna (106,4%) sut, 2429,0 mln dona (109,7%) tuxum, 23779,0 tonna (106,2%) jun va 896,8 ming dona (114,9%) qorako'l teri ishlab chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ-308-son qaroriga muvofiq shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish maqsadida 22,4 ming nafar fuqaroga 40,0 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Mavjud chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida chet ellardan 39,3 mlrd. so'mga jami 6501 bosh naslli mollar keltirildi, bunda bir bosh naslli molning o'rtacha narxi 3,7 mln. so'mga (2007 yilda 3,6 mln. so'm) to'g'ri keldi.

2008 yilda amalga oshirilgan tashkiliy agrotexnik tadbirlar natijasida barcha toifdagi xo'jalik sub'ektlari tomonidan jami 9 mln. 791,1 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari, shundan 5217,4 ming tonna sabzavot, 1398,7 ming tonna kartoshka, 981,2 ming tonna poliz, 1402,8 ming tonna meva va 791,0 ming tonna uzum ishlab chiqarildi. Biroq, bizda hali ushbu mahsulotlarni iste'molchiga yetkazib berish muammolari to'liq hal etilgani yo'q. Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa, pilla, jun, teri, paxta va boshqalarni yetishtirish va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish o'rtasida nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Jumladan, paxta xomashyosining 34%, mevalarning 17%, sabzavotlarning 12%, poliz ekinlarining 7%, uzumning 25%, terining 28%, junning 17%, go'shtning 27%, sutning 7% sanoatda qayta ishlanmoqda xolos. SHunga ko'ra, dasturda meva va sabzavotlarni qayta ishlash korxonalarini uchun imtiyozlarni uzaytirish masalalari ham o'rin olgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tabiatning turli sharoitlariga moslashtirishda issiqxonalarining roli katta. 2009 yilda har bir tumanda kamida 5 tadan issiqxona qurish mo'ljallanganligi bu boradagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

Sohani rivojlantirishda moddiy-texnik ta'minot masalasiga eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotgani sababli 2008 yilda qishloq xo'jaligiga xorijdan 1149 dona VT-150 va T-4A rusumidagi zanjirli va 459 ta MXM-140 rusumli haydov traktorlari hamda 386 ta yuqori unumli CLASS kompaniyasining «Dominador-130» rusumli don o'rish kombaynlari olib kelindi.

⁵ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 22-23-b.

Lizing asosida qishloq xo'jalik korxonalariga jami 48,9 mlrd. so'mlik 3459 dona turli xildagi texnikalar yetkazib berildi. 2009 yilda ham ushbu an'anani davom ettirib, 7547 ta texnika lizing, kredit asosida olish orqali texnika ta'minotini kuchaytirish ko'zda tutilmoqda.

2008 yil hosilini yetishtirish uchun tijorat banklari orqali qishloq xo'jaligiga jami 982,9 mlrd. so'm, shundan paxta hosili uchun 787,1 mlrd. so'm va boshqali don hosili uchun 195,8 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar yo'naltirildi. 2009 yil boshqali don hosili yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 201,3 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilishi mo'ljallanmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq barcha tadbirlar shartnoma asosida tashkil etilmoqda, mavsum yakuni bo'yicha jami 6 mln. 250 ming tonna g'alla ishlab chiqarilib, shuning 2 mln. 533,9 ming tonnasi davlatga sotildi.

Qishloqda sanoat ishlab chiqarishni va qurilishni tez sur'atlar bilan rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirishda ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim hisoblanadi. SHunga ko'ra, 2009 yilda chorvachilik va parrandachilikda, go'sht va sutni qayta ishlashda, tikuv, poyafzal va mebel ishlab chiqarishda, qurilish materiallari ishlab chiqarishda 65 ming yangi ish joyi tashkil qilish ko'zda tutilmoqda. Ayni paytda har bir viloyatda xorijda ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyaga asoslangan meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash korxonalarini tashkil qilish yangi ish o'rinlari sonini yanada oshiradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga kiritilgan chora-tadbirlar o'z mazmuni va ahamiyatiga ko'ra mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. SHu sababli, ushbu dasturni har tomonlama izchil va to'liq amalga oshirilishi 2009 yilda va keyingi davrlarda xususan qishloqlarimizning, umumiy holda esa mamlakatimizning taraqqiyoti va ravnaqiga sezilarli hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ularni funktsional beligisiga ko'ra tabiiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar sifatida tasniflashtirish mumkin. Bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ijtimoiy yo'nalishga ega muammo hisoblanadi. Xalqning turmush darajasi, jamiyatdagi siyosiy barqarorlik, respublikaning haqiqiy iqtisodiy erkinligi muammoning qay darajada hal qilishiga bog'liq.

2. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tashkiliy-iqtisodiy omillar alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllanishiga, dehqonlarga yerga xo'jayinlik hissini, tadbirkorlik faoliyatini qayta tiklashga qaratilgan.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni belgilab beruvchi ko'plab omillar ichida yer-suv, mehnat resurslaridan, to'plangan moddiy-texnika imkoniyatlaridan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi korxonalarida daromadini oshirish uchun ishchilar umumxalq, jamoa va shaxsiy manfaatlarining maqsadga muvofiq uyg'unlashuvini hisobga olgan holda iqtisodiy sharoitlar tizimini takomillashtirish, fan-texnika natijalarini joriy etgan holda qishloq xo'jaligida izchil intensivlashtirishni amalga oshirish, yerdan oqilona foydalanish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, asosiy va aylanma fondlardan, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligi, ishlar va qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini yaxshilash, tejash rejimi va moddiy manfaatdorlik tamoyilini amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti talabini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni boshqarish shakllarini takomillashtirish, qishloq ishchilari turmush darajasini oshirish zarur.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammosi moddiy-texnika resurslari imkoniyatlari bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Mavjud yer, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va yuqori navli urug'lar, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari, kichik texnika va boshqa zaruriy moddiy texnika resurslari bilan ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jaligiga har tomonlama yordam ko'rsatish mahsulot ishlab chiqarishni imkon beradi.

5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishning yangi usul va metodlari iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi: bir gektar yer hisobiga va bir bosh mol hisobiga olinadigan yuqori sifatli mahsulot miqdori; mehnat unumdorligi; mahsulot tannarxi; sof daromad va rentabellik; kapital mablag'lar va ularning o'z o'rnini qoplashi.

6. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan yangi usullar va metodlarga baho berishda quyidagi tashkiliy-xo'jalik talablari ham hisobga olinishi lozim: mehnat sharoitining yaxshilanishi va osonlashuvi; mavsumiylikning kamayishi hamda ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalaridan bir tekisda foydalanish; kadrlarning tajribasi va malakasi; kompleks mexanizatsiyani joriy etish; mahsulotning kelib tushish muddatlari; mahsulotlarga davlat buyurtmalarini bajarilishi; milliy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kamyob mahsulotlarni ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish; texnologiyaning, ishlab chiqarishni tashkil etishning murakkabligi va hokazolar.

7. Namangan viloyati agroiqlimiy xususiyatlar natijasida shakllangan qishloq xo'jaligi mintaqasi hisoblanib, mavjud tabiiy hamda ichki omillar paxta sanoat majmuasi, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik va shu bilan bir qatorda chorvachilikning rivojlanishiga ijo-biy ta'sir etadi.

Bugungi kunda qulay agroiqlimiy shart-sharoitlar ta'sirida mintaqada qishloq xo'jaligida o'ziga xos tarmoqlar va hududlar ishlab chiqarishi vujudga keldi. Mintaqada asosan sug'orma dehqonchilik rivojlangan bo'lib, paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va polizchilik tarmoqlari shakllangan. Ayni vaqtda, chorvachilik tarmog'ida qo'ychilik va

echkichi-lik, qoramolchilik, parrandachilik rivojlangan bo'lib, bu tarmoqda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqoriligi bois ixtisoslashgan soha hisoblan-maydi.

8. CHorvachilikda qo'y va echkichilik ham birmuncha rivojlangan tarmoq hisoblanadi. Mazkur soha hatto Namangan shahri uchun ham xarakterlidir. Namangan shahri aholi xo'jaliklaridagi qo'y va echkilar viloyatdagi qo'y va echkilarning 20 foizini tashkil qiladi. Ayni paytda CHust, Pop, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, To'raqo'rg'on tumanlari ham yuqori ko'rsatkichlarga ega. Qoramolchilik bo'yicha Namangan shahri, CHust, Yangiqo'rg'on, Pop, Uchqo'rg'on tumanlarining ulushi yuqori darajani tashkil etadi.

9. Namangan viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni aksariyat qismi nodav-lat sektorga to'g'ri kelishi va uni jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi;
- er resurslari taklifi nisbatan cheklanganligi va tuproq unum-dorligi (asosan shimoliy hududlarda) qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etishi;
- er resurslarining joylashishi, sifatiga bog'liq holda qishloq xo'jaligi korxonalarining istiqbolli rivojlantirish imkoniyatlari cheklanganligi;
- qishloq xo'jalik korxonalarining ustun darajada davlat buyurtmasi bo'yicha paxta va g'alla mahsulotlari ishlab chiqarishga xo'jalik ixtisoslashuvi;
- erkin narxlarning mavsumiy tebranishi hisobiga meva va poliz mahsulotlariga ixtisoslashgan qayta ishlash korxonalari faoliyati to'xtab qolishi;
- hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan qayta ishlash korxonalari monopol salohiyatga ega va ushbu sohada nodavlat sektor ulushi deyarli mavjud emas.

10. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xo'jaliklarning iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda mavjud tabiiy shart-sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish uchun quyidagi muammolarni hal qilish maqsadga muvofiqdir:

-qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirishning chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va mahsulotlarning raqobatbardosh-ligini oshirish;

-tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, qishloq xo'ja-lik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari o'rtasida yagona maqsadli bozorni tashkil qilish;

-xaridorlarning to'lov qobiliyatini muntazam o'rganish asosida mahsulotlarni sotish yo'nalishlarini takomillashtirib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.-T.: Iqtisodiyot, 2010. – 281 bet.
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
3. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
4. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4057-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturini kuchga kiritish to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1046-son.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2010 yil 27 yanvar, PQ-1271-son.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 2009 yil 13 fevral.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
18. O'zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida. (Bekmurodov A.SH., G'afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).
19. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o'zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo'llanma. (Bekmurodov A.SH., Gimranova O.B., SHamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b. (elektron versiyasi bilan).
20. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo'lida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.SH., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U.). - T.: Iqtisodiyot, 2009. – 10 b. (elektron versiyasi bilan).
21. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari. Ekspress-testlar. (Bekmurodov A.SH., Amonboev M.A., Kattaev N.T.). - T.: Iqtisodiyot, 2009. – 15 b. (elektron versiyasi bilan).
22. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha statistik to'plamlari.
23. Abduvasiqov A.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Toshkent viloyati agrar ishlab chiqarishida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligi: Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zMU, 2005. – 20 b.
24. Abduvasiqov A. Samaradorlik darajasi: unda hududiy guruhlanish ko'zga tashlanmoqda// J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-2004. № 10. 7-b.
25. Abdujamilova M.M. Agrar sohada marketing tizimini shakllantirish //Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyot-ning raqobatbardoshligi: respublika ilmiy-amaliy seminari maqola-lar to'plami. – T.: 2005. 218-220-b.
26. Abdullaev O. Jumhuriyatlararo agrosanoatni tashkil etish muammolari.-T.: Mehnat, 1991. – 224 b.
27. Abdullaev O. Namangan viloyati (tabiati, aholisi, xo'jaligi).-Namangan: NamDU, 1995. – 149 b.
28. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. Monografiya.-Namangan: NamDU, 2000. – 291 b.
29. Abdullaev R.V. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida agrar sektorning eksport salohiyatini yuksaltirish (paxta tolasi eksporti misolida): Iqtisod fan. dok. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2001. – 50 b.
30. Abdullaev F. Analiz kon'yunkturi sel'skoxozyaystvennix rinkov //Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyot-ning raqobatbardoshligi: respublika ilmiy-amaliy seminari maqola-lar to'plami. – T.: 2005. 229-231-b.
31. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik.-T.: TDIU, 2004. – 304 b.
32. Allanov K., Ro'ziev O. Surxondaryoda paxta yetishtirishning iqtisodiy-geografik muammolari //O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy geografik siyosati: muammolar va yechimlar: xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2-qism. – Namangan, 2001. 116-118-b.
33. Jumaev O.T. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida meva-sabzavotchilik majmuida kooperatsiyani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari: Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2004. – 29 b.
34. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik.-T.: O'AJBNT Markazi, 2003. – 455 b.
35. Mengliqulov B.Yu. Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni rejalashtirish mexanizmini takomillashtirish: Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2005. – 26 b.

36. Mirzaahmedov H., Jumaxonov SH. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi-ning tarmoq va hududiy xususiyatlari //Geografiya tarixi: xotira va qadriyatlar: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Namangan, 2005. 97-100-b.
37. Mo'minov SH.X. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida O'zbekiston agrar sektor eksport salohiyatini rivojlantirish. (Meva-sabzavotchilik quyi majmuasi mahsulotlari misolida): Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2005. – 22 b.
38. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari: Iqtisod fan. dok. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2001. – 40 b.
39. Uzbekistan desyat' let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki/ R.A.Alimov, A.K.Berdintsev, A.F.Rasulev i dr.; pod red. A.X. Xikmatova.-T.: O'zbekiston, 2001. – 352 b.
40. Xurramov A.F. O'tish iqtisodiyotida mulkiy munosabatlar va ularning agrar sohadagi xususiyatlari: Iqtisod fan. dok. ... dis. avtoref.-T.: O'zMU, 2005. – 42 b.
41. Xushvaqtova H.S. Bozor sharoitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari: Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2005. – 26 b.
42. Xushmatov N., Gayupov SH. Sabzavot yetishtirish tizimi va bozor mexa-nizmi// J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – T.: 2004. № 1. 5-6-b.
43. SHermatov O.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida paxtachilik-ni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari: Iqtisod fan. nom. ... dis. avtoref.-T.: O'zBIITI, 2006. – 29 b.
44. Ergashev A. G'alla ishlab chiqarishda kooperatsiyani rivojlantirish// J. Bozor, pul va kredit. – T.: 2002. № 1. 65-67-b.
45. Yuldashev A.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli mulk-chilikka asoslangan chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish istiqbol-lari: Iqtisod fan. nom. dis. ... avtoref.-T.: O'zBIITI, 2004. – 31 b.
46. Qishloq xo'jaligida indikativ rejalashtirish/ A.A. Rahmonaliev, A. Jo'raev, T.Mirzamahmudov va b.-T.: FIM, 1999. – 137 b.
47. Husanov R.H., Dodoboev Yu.T., Dodoboev D.Yu. Agrosanoat kompleksi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.-T.: Quvasoy tadbirkorlik o'quv ilmiy ishlab chiqarish Markazi, 2003. – 772 b.

Internet saytlar

1. (<http://management.edu.ru/db/msg/128017.html>).
2. (<http://orel3.rsl.ru/dissert/isaeva>).
3. (<http://www.iet.ru/afe/publications.html>).